O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 05/2025.27.12 Fil. 15.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

YUSUPOVA KAMOLA QOBILJON QIZI

REKLAMA MATNLARIDA FONETIK-GRAFIK VA LEKSIK-GRAMMATIK BIRLIKLARNING EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI

10.00.01 - O‘zbek tili

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

UO‘K: 811.512.133’342’36:659

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по филологическим наукам

Contents of Dissertation Abstract of Doktor of Science (DSc) on philological sciences

Yusupova Kamola Qobiljon qizi

Reklama matnlarida fonetik-grafik va leksik-grammatik birliklarning ekspressiv xususiyatlari .....

Yusupova Kamola Qobiljon qizi

The expressive features of phonetic-graphic and lexical-grammatical units in advertising texts.....

Юсупова Камола Кобилжон кизи

Экспрессивные особенности фонетико-графических и лексико-грамматических единиц в рекламных текстах …….....

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works .....

O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 05/2025.27.12 Fil. 15.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

YUSUPOVA KAMOLA QOBILJON QIZI

REKLAMA MATNLARIDA FONETIK-GRAFIK VA LEKSIK-GRAMMATIK BIRLIKLARNING EKSPRESSIV XUSUSIYATLARI

10.00.01 - O‘zbek tili

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent - 2026

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/Fil788 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti veb-sahifasining (www.tai.uz) hamda “ZiyoNet” axborot-ta’lim portali (www.zionet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Mahmudov Nizomiddin Mamadaliyevich** filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**O‘razboyev Abdulla Durdibayevich** filologiya fanlari doktori, professor
	Usmonova Shoira Rustamovna filologiya fanlari doktori, professor
	Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna filologiya fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Fil.15.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “ 4 ” avgust soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz tor ko‘chasi, 5-uy. Tel.: (871) 233-36-50; faks: (871) 233 -71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (54 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahar, Ziyolilar ko‘chasi, 13-uy. Tel.: (99871)262-74-58

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “16” oktabr da tarqatildi.

(2026-yil “16” oktabr dagi 10 raqamli reyestr bayonnomasi).

M.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, f.f.d., professor

M.B.Saydaliyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.f.d.(PhD)

D.S.Xudoyberganova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida ayni davrda ommaviy kommunikatsiya matnlarini, xususan, reklama diskursini pragmalingvistik, psixolingvistik va kognitiv yo‘nalishlarda tadqiq etish, ularning lingvistik xususiyatlarini ochib berish borasidagi olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar tilimizning jahon miqyosida hamda axborot makonida o‘z o‘rni va maqomiga erishuviga xizmat qilmoqda. O‘zbek tilshunosligida ham reklama matnlarining tabiati, xususan, undagi lisoniy vositalarning ta’sirchanlik (ekspressivlik) va manipulyativ xususiyatlari haqidagi nazariy bilimlarimizni ma’lum darajada takomillashtirish bugungi davr talabidir. Bu esa, o‘z navbatida, o‘zbek reklama matnlarining fonetik-grafik va leksik-grammatik birliklarini ekspressiv-pragmatik jihatdan tizimli va monografik asosda tadqiq qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Dunyo tilshunosligida shakliy va mazmuniy mohiyatga ega bo‘lgan til birliklariga pragmalingvistik va kognitiv asosda yondashish, ularni ko‘pkodli matnlar doirasida semantik guruhlarga ajratib, funksional-uslubiy jihatlarini yoritish, reklama muhitida qo‘llanilgan lug‘aviy va grammatik birliklarga xos ta’sirchan xususiyatlarni o‘rganish, ularni turlicha psixolingvistik guruhlarga ajratish asoslarini belgilash, har qaysi ekspressiv birliklarning nutqiy jarayonda namoyon bo‘lish xususiyatlarini mukammal tadqiq etish bugungi kunning zaruriy masalalaridan hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa, yurtimizda erkin bozor iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va raqamli media makonning kengayishi natijasida reklama sohasi mislsiz darajada o‘sdi. Bunga mos ravishda, axborot makonida tilimizning lisoniy, ma’rifiy-badiiy xususiyatlarini va ekologiyasini saqlash masalasiga e’tiborning kuchayishi natijasida tadqiqotlarning mavzu doirasi yanada kengaymoqda. Jumladan, ma’naviyatimizning uzviy qismi va jamiyatning ommaviy iste’mol obyektiga aylangan reklama matnlarining adabiy-badiiy hamda lisoniy xususiyatlarini tadqiq etish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, “...o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur”[1]. Shunga ko‘ra, o‘zbek reklama matnlarining til xususiyatlarini chuqur anglash, ulardagi lisoniy vositalarning badiiy imkoniyatlari hamda milliy-madaniy jihatlarini tahlil qilish va uni bugungi avlodga yetkazish, shuningdek, reklama tili orqali jamiyatga kirib kelayotgan lisoniy og‘ishlar va xatoliklarning oldini olish muhim masala sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Bu borada o‘zbek reklama matnlarida fonetik-grafik va leksik-grammatik birliklarning ekspressiv-pragmatik xususiyatlarini lingvokognitiv asosda tadqiq etish zamonaviy axborot va reklama tili rivojiga qo‘shilgan hissa bo‘lib, ijodkor (kopirayter)larning lisoniy ta’sir ko‘rsatish strategiyalarini, shuningdek, matnning funksional-uslubiy xususiyatlarini ochish ham g‘oyat dolzarbdir.

[1] Мирзиёев Ш.М. Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг 30 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ. 21 октябрь, 2019 йил. https://president.uz/uz/lists/view/2954

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 7-iyundagi O‘RQ-776-son “Reklama to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash haqida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi[2]. Jahon tilshunosligida ayni davrda ommaviy kommunikatsiya, medialingvistika va reklama diskursini pragmatik, psixolingvistik va kognitiv jihatdan tadqiq etish, reklama matnlaridagi lisoniy va nolisoniy birliklarning ta’sirchanlik xususiyatlarini ochib berish borasidagi ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, University of Pennsylvania, University of California, Northwestern University (AQSH), Lancaster University, Oxford University (Buyuk Britaniya), University of Amsterdam (Niderlandiya), Sorbonne Nouvelle (Fransiya); Peking University (XXR), University of Tokyo (Yaponiya); Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, A.S.Pushkin nomidagi Davlat rus tili instituti (RF); İstanbul Üniversitesi, Ankara Üniversitesi, Hacettepe Üniversitesi (Turkiya), Bakı Dövlət Universiteti (Ozarbayjon), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Farg‘ona

[2]Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi https://www.researchgate.net, https://scholar.google.com, https://www.scopus.com, https://www.msu.ru, https://www.rudn.ru, https://www.ox.ac.uk, https://www.uva.nl, https://www.ankara.edu.tr va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

davlat universiteti va Samarqand davlat universiteti (O‘zbekiston)da olib borilmoqda.

Jahon tilshunosligida reklama diskursi, mediamatnlarning lingvopragmatik va ekspressiv xususiyatlari yuzasidan, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: reklama matnlarining polikodli (kreollashgan) tabiati va ulardagi vizual-grafik hamda verbal unsurlarning o‘zaro sintezi ochib berilgan, adresatga nutqiy ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari umumlashtirilgan (University of Amsterdam, Lancaster University); reklama matnlarining psixolingvistik va suggestiv (ongostiga ta’sir qiluvchi) mexanizmlari, perlokutiv samaradorligi va manipulyativ mohiyati ochib berilgan (Moskva davlat universiteti, Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti); ommaviy kommunikatsiyada pragmatonimlar, neologizmlar va ekspressiv sintaktik qurilmalarning ta’sir kuchi lingvokognitiv va etnolingvistik usullarda komparativistik yondashuv asosida yoritilgan (University of California, Ankara Üniversitesi); tijoriy va ijtimoiy reklamalar tili madaniyatlararo kommunikatsiya, diskurs-tahlil va ekolingvistika (til ekologiyasi) asosida tahlilga tortilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti).

Dunyo tilshunosligida reklama diskursi va mediamatnlar pragmatikasi bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: reklama matnlarining pragmatik, sotsiolingvistik va psixolingvistik jihatlarini yoritish; matndagi fonetik-grafik va leksik-grammatik birliklarning ekspressiv xususiyatlarini ochib berish; reklama va jamoatchilik bilan aloqalar diskursining manipulyativ tabiati, nutqiy ta’sir strategiyalari va taktikalarini kognitiv yo‘nalishda o‘rganish; ommaviy axborot vositalari va internet (raqamli) reklamalari tilining ekolingvistik muammolari (lisoniy normalardan og‘ish, lisoniy vandalizm holatlari)ni tahlil qilish; tijoriy matnlarning kreollashganlik (matn, rang, shrift, tasvir uyg‘unligi) xususiyatlarini tarjimashunoslik va lingvomadaniyatshunoslik doirasida ko‘rib chiqish hamda reklama matnlari bazasida milliy lingvistik korpuslar yaratish.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida til birliklariga faqatgina aloqa vositasi sifatida emas, balki inson ongi, ruhiyati va jamiyatni boshqaruvchi qudratli mexanizm sifatida yondashishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ommaviy kommunikatsiya, xususan, reklama diskursini pragmatik, kognitiv va psixolingvistik jihatdan tadqiq etish borasidagi nazariy qarashlar XX asrning o‘rtalaridayoq shakllanib, bugungi kunda o‘zining yuqori taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi.

Jahon tilshunosligi va falsafasida nutqiy ta’sir va tilning manipulyativ tabiati ilk bor pragmalingvistika va kognitologiya vakillari tomonidan o‘rganildi. J.Ostin va J.Syorllarning “Nutqiy aktlar nazariyasi” tilning harakat va voqelikni o‘zgartiruvchi kuch ekanligini asoslab berdi[3]. T.A. van Deyk tanqidiy diskurs-tahlil asoslarini yaratib, matn va hukm (ta’sir o‘tkazish) o‘rtasidagi

[3] Сёрль Дж.Р. Что такое речевой акт? // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. – Москва: Прогресс, 1986. – С. 151.

munosabatlarni yoritdi[4]. Sh.Balli, J.Vandries, E.Sepir kabi olimlar esa tildagi ekspressivlik, emotsionallik va fonosemantika (ovoz ramziyligi) masalalarini tadqiq etib, til birliklarining inson hissiyotlariga bevosita ta'sirini isbotladilar[5]. Shuningdek, K.Byuler, V.Kyoler, M.Jonson, J.Lakoff, E.Kassirer kabi kognitolog va faylasuflar metaforalar hamda lisoniy ikonizmning inson tafakkurini modellashtirishdagi beqiyos o'rnini yoritib berdilar[6]. Reklama psixologiyasi, iste'molchi xulq-atvori, vizual idrok va ranglar semantikasi esa T.Kyonig, K.Bove, U.Arens, E.Aronson, R.Arnxeym, M.Pasturo, E.Xeller, T.L'el kabi yirik mutaxassislar tomonidan chuqur tadqiq etilgan[7]. Bu tadqiqotlar ommaviy axborot vositalari orqali auditoriyani ishontirish, ongostiga ta'sir qilish va xaridorga yo'naltirilgan xulq-atvorni shakllantirishning universal mexanizmlarini ochib berdi. MDH va rus tilshunosligida reklama matnlari, pragmalingvistika va medialingvistika muammolari keng ko'lamda tadqiq qilingan bo'lib, ularni shartli ravishda bir necha yo'nalishlarga ajratish mumkin.

Matn lingvistikasi va diskurs nazariyasi I.R.Galperin, N.D.Arutyunova, V.G.Gak, Y.S.Kubryakova asarlarida asoslangan bo'lsa[8], bevosita reklama matnining lingvistik va sintaktik xususiyatlari D.E.Rozental, N.N.Koxtev, Y.V.Pesoskiy, T.N.Livshis kabi olimlarning ilk monografiyalarida ochib berildi[9]. Psixolingvistika va nutqiy ta'sir nazariyasi A.A.Leontev, Y.F.Tarasov, D.N.Uznadze va A.N.Lebedev-Lyubimov tadqiqotlarida o'z aksini topgan[10]. Lisoniy baholash, ekspressivlik va konnotatsiya masalalari V.N.Teliya, Y.M.Galkina-Fedoruk, Y.M.Volf, V.I.Shaxovskiy, D.A.Paramonov tomonidan o'rganildi[11]. Shuningdek, rus lingvistikasida reklama tilidagi neoleksemalar, lisoniy o'yinlar va chegaralangan leksika xususiyatlari V.Z.Sannikov, S.V.Ilyasova, L.P.Amiri, T.A.Gridina, M.V.Terskix, N.V.Uglova, G.A.Potapova tomonidan[12]; kreollashgan matnlar tabiati va shriftlar pragmatikasi

---

[4] Дейк Т.А. ван. Дискурс и власть: Репрезентация доминирования в языке. – Москва: Либроком, 2013. – С. 45.

[5] Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Изд-во иностранной литературы, 1961. – С. 142.

[6] Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – Москва: УРСС, 2004. – С. 25.

[7] Бове К.Л., Аренс У.Ф. Современная реклама. – Тольятти: Издательский дом Довгань, 1995. – С. 704.

[8] Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – С. 18; Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: СЭ, 1990. – С. 136; Гак В.Г. Языковые преобразования. – Москва: Школа «Языки русской литературы», 1998. – С. 628; Кубрякова Е.С. Язык и знание. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – С. 92.

[9] Розенталь Д.Э., Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. – Москва: Высшая школа, 1981. – С. 127; Песоцкий Е. Современная реклама. Теория и практика. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2001. – С. 320; Лившиц Т.Н. Специфика рекламы в прагматическом и лингвистическом аспектах. – Таганрог: Изд-во ТРТУ, 1999. – С. 45.

[10] Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 1997. – С. 142; Тарасов Е.Ф. Речевое воздействие: психологические и психолингвистические проблемы. – Москва: Наука, 1986. – С. 45; Узнадзе Д.Н. Общая психология. – Москва: Смысл, 2004. – С. 89; Лебедев-Любимов А.Н. Психология рекламы. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – С. 71.

[11] Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – С. 214; Галкина-Федорук Е.М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке // Сборник статей по языкознанию. – Москва: МГУ, 1958. – С. 103; Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – Москва: Наука, 1985. – С. 63; Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций. – Москва: Гнозис, 2008. – С. 52; Парамонов Д.А. Феномен грамматического выражения модальных значений в современном русском языке в свете экспрессивности: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Москва, 2010. – С. 16.

[12] Санников В.З. Русский язык в зеркале языковой игры. – Москва: Языки славянской культуры, 2002. – С. 552; Ильясова С.В., Амири Л.П. Языковая игра в коммуникативном пространстве СМИ и рекламы. –

Y.Y.Anisimova, O.V.Osetrovalar ishida[13]; fonosemantika va onomatopeya S.V.Voronin, A.P.Juravlev, V.A.Tashkinova asarlarida atroflicha yoritilgan[14].

Imperativlikning tipologiyasi va undash pragmatikasi V.S.Xrakovskiy, A.P.Volodin, Y.I.Belyayeva kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan[15]. Reklama onomastikasi va pragmatonimlar tabiati N.V.Podolskaya, A.A.Ufimseva, Y.S.Otin, O.V.Kirpicheva singari tadqiqotchilarning ilmiy diqqat markazida bo‘lgan bo‘lsa[16], reklama matnlaridagi me’yordan og‘ishlar ekolingvistika doirasida V.G.Kostomarov, A.P.Skovorodnikov, Y.S.Kara-Murza kabi olimlar tomonidan keskin tanqidiy tahlilga tortildi[17].

Milliy tilshunosligimizda tilning ichki imkoniyatlari va ekspressiv vositalarni o‘rganish tarixi Mahmud Koshg‘ariy va Alisher Navoiylarning o‘lmas asarlariga borib taqaladi[18]. Hozirgi o‘zbek tilshunosligida esa bu masalalar tizimli ravishda tadqiq etib kelinmoqda. Xususan, o‘zbek tili grammatikasi, so‘z yasalishi va lug‘at boyligini kengaytirish tamoyillari A.G‘ulomov, G‘.Abdurahmonov, A.Hojiyev, H.Ne’matov kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan[19]. O‘zbek tili stilistikasi, frazeologiyasi va badiiy tasvir vositalari R.Qo‘ng‘urov, Sh.Rahmatullayev, A.Shomaqsudov, H.Rustamov, B.Yo‘ldoshev tadqiqotlarida keng yoritilgan[20].

Mustaqillik yillarida va undan keyingi davrda o‘zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigmaning qaror topishi natijasida pragmalingvistika, kognitiv

---

Москва: Флинта, 2012. – С. 145; Гридина Т.А. Языковая игра: стереотип и творчество. – Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т, 1996. – С. 78; Терских М.В. Лексика ограниченного употребления в рекламе: функциональный аспект // Неофилология. – 2025. – Т. 11. № 1. – С. 58; Углова Н.В. Употребление жаргонных слов в рекламном тексте // Альманах теоретических и прикладных исследований рекламы. – 2016. № 1. – С. 49; Потапова Г.А. Функционирование иноязычных морфем в русском языке на рубеже XX-XXI веков: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2014. – С. 3.

[13] Анисимова Е.Е. Лингвистика текста и межкультурная коммуникация. – Москва: Академия, 2003. – С. 128; Осетрова О.В. Шрифт в рекламном дизайне: На примере печатной полиграфической и пресс-рекламы: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2005. – С. 112.

[14] Воронин С.В. Основы фоносемантики. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1982. – С. 68; Журавлев А.П. Фонетическое значение. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1974. – С. 160; Ташкинова В.А. Фоносемантическая структура поликодового текста: дис. ... канд. филол. наук. – Пермь, 2022. – С. 230.

[15] Храковский В.С., Володин А.П. Семантика и типология императива: Русский императив. – Ленинград: Наука, 1986. – С. 36; Беляева Е.И. Грамматика и прагматика побуждения: английский язык. – Воронеж: ВГУ, 1992. – С. 168.

[16] Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Наука, 1988. – С. 108; Уфимцева А.А. Лексическое значение. Принцип семиологического описания лексики. – Москва: Наука, 1986. – С. 27; Отин Е.С. Словарь коннотативных собственных имен. – Донецк: ООО «Юго-Восток», 2004. – С. 171; Кирпичева О.В. Ономастикон рекламного текста. – Волгоград: ВГПУ, 2007. – С. 14.

[17] Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. Из наблюдений над речевой практикой масс-медиа. – Москва: Педагогика, 1994. – С. 84; Сковородников А.П. Экология русского языка. – Красноярск: СФУ, 2016. – С. 25; Кара-Мурза Е.С. Лингвистическая экспертиза рекламного дискурса // Культура речи и эффективное общение. – Москва: Флинта, 2005. – С. 250.

[18] Кошғарий М. Девону луғотит турк. II жилд. – Тошкент: ЎзФА нашр, 1961. ; Алишер Навоий. Асарлар. Ўн тўртинчи том. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1968.

[19] Ғуломов А.Ғ. Феъл. – Тошкент: ЎзФА, 1954. – Б. 45; Абдураҳмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 112; Ҳожиев А. Сўз ясалиши тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 34; Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 41.

[20] Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий воситалар. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 154; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – Б. 12; Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 178; Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 14; Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент: Муҳаррир, 2013. – Б. 90.

lingvistika va matn lingvistikasi jadal rivojlandi. Bu yo‘nalishda ko‘lamli ishlar N.Mahmudov qalamiga mansub bo‘lsa[21], Sh.Safarov, A.Nurmonov, M.Hakimov, S.Mo‘minov, D.Xudoyberganova, M.Yo‘ldoshev, B.Mengliyev va R.Sayfullayeva kabi yirik olimlarning yaratgan qator tadqiqotlar mavjud[22].

Sintaktik ta’sirchanlik, aktualizatsiya, ellipsis va vokativlar A.Abdullayev, B.O‘rinboyev, A.Boboyeva, N.Sadullayeva, O.Bozorov, D.Egamnazarova, T.Allayorov, M.Xolboyeva kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida keng yoritilgan[23]. Grammatik va sintaktik sath masalalari, lisoniy interferensiya va me’yor muammolari M.Ernazarova, D.Lutfullayeva, Sh.Usmonova asarlarida, murojaat birliklari va undalmalar N.Ahmedova tomonidan ilmiy tahlilga tortilgan bo‘lsa, terminologiya, neologiya va onomastikaning kognitiv jihatlari A.Madvaliyev, Y.Odilov, M.Aliyeva, D.Yuldashev ishlarida o‘z ifodasini topgan[24].

Bevosita o‘zbek reklama matnlari, OAV va ijtimoiy kommunikatsiya tili muammolari ustida ham so‘nggi yillarda qator e’tiborga molik izlanishlar olib borildi. Z.Tohirovning reklama uslubiyatiga doir ishidan so‘ng[25], keyingi yillarda mazkur sohaning xususiy yo‘nalishlari bo‘yicha dissertatsion tadqiqotlar yaratildi. Xususan, K.Q.Yusupovaning reklamada imperativlik ifodalanishiga doir ishi, D.Sh.Mamirovaning reklama matnlarining sotsiolingvistik xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqoti, J.A.Bakadirovning ijtimoiy reklamalarni lingvomadaniy tahlil qilgan izlanishlari hamda N.M.Allaberganovaning reklama matnlarining lingvokognitiv xususiyatlarini ochib bergan monografik ishlari bu

---

[21] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б. 24; Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – Б. 12; Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 20; Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б. 45.

[22] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 34; Нурмонов А., Маҳмудов Н., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – Б. 42; Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 56; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 34; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 12; Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 156; Менглиев Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Тошкент: Тафаккур, 2018. – Б. 62; Сайфуллаева Р., Менглиев Б. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2010. – Б. 345.

[23] Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 6; Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилида вокатив категория. – Тошкент: Фан, 1972. – Б. 37; Бобоева А. Ҳозирги ўзбек адабий тилида тўлиқсиз гаплар. – Тошкент: Фан, 1978. – Б. 44; Садуллаева Н.А. Ўзбек тилшуносигида тўлиқсиз гаплар // Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti. – Бухоро, 2020. №1. – Б. 170; Бозоров О. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив (актуал) тузилиши: филол. фан. номз. ...дис. – Фарғона, 2004. – Б. 12; Эгамназарова Д. Гапнинг актуал бўлиниши концепцияси. – Андижон, 2021. – Б. 118; Аллаёров Т.Р. Ўзбек тилидаги буйруқ ва сўроқ конструкцияларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Гулистон, 2020. – Б. 14; Холбоева М. Буйруқ гаплар семантикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2005. №2. – Б. 104.

[24] Эрназарова М. Грамматик маъно лисоний ва прагматик омиллар яхлитлигида. – Тошкент: Академнашр, 2016. – Б. 155; Лутфуллаева Д. Мустақиллик даври расмий-идоравий иш услуби тараққиёти. – Тошкент: Extremum-press, 2020. – Б. 95; Усмонова Ш. Лингвистик интерференция муаммолари // Хорижий филология. – Самарқанд, 2017. – № 2. – Б. 14; Аҳмедова Н. Ўзбек тили мурожаат бирликлари. – Тошкент: Наврўз, 2009. – Б. 5; Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. – Тошкент: ЎзМЭ, 2017. – Б. 384; Одилов Ё. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – Б. 140; Алиева М. Реклама дискурсининг лингвокогнитив тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 45; Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Ниҳол, 2021. – Б. 86.

[25] Тоҳиров З.Т. ОАВ рекламалари услубияти назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 22.

sohada mustahkam poydevor yaratdi[26]. Shuningdek, O.Jumayev reklamadagi neologizmlar o‘rnini, M.Buzrukova esa undash konstruksiyalari tabiatini ilmiy tahlilga tortgan. Bundan tashqari, ranglarning madaniy-psixologik xususiyatlari borasida Sh.Mustafayev, S.Bulatov singari olimlarning izlanishlarini qayd etish mumkin[27].

Yuqorida qayd etilgan jahon va milliy tilshunoslikdagi keng qamrovli tadqiqotlarga qaramay, hozirgi globallashuv va raqamli axborot almashinuvi davrida o‘zbek reklama matnlari yaxlit, polikodli va manipulyativ diskurs sifatida kompleks tadqiq etilmagan. Dunyo tilshunoslari tomonidan ommaviy kommunikatsiyadagi ta’sir mexanizmlari, ekolingvistika, medialingvistika va kognitiv stilistika borasida erishilgan yutuqlarni yaxlit tizimga solgan holda, o‘zbek reklama matnlaridagi fonetik-grafik ekspressiv-pragmatik xususiyatlarini milliy mentalitet qonuniyatlari bilan uzviylikda, monografik asosda o‘rganish masalasi tilshunosligimizda hanuz ochiq qolmoqda. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish va o‘zbek reklama diskursining pragmalingvistik hamda ekolingvistik modellarini yaratish mazkur dissertatsiyaning muammo sifatidagi yangiligi va dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O‘zbek tili yo‘nalishi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek tilshunosligining zamonaviy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek reklama matnlarining lingvopragmatik, kognitiv va psixolingvistik xususiyatlarini yaxlit tizim sifatida monografik tadqiq etish, reklama diskursida ekspressiv fonetik-grafik, leksik va grammatik vositalarning iste’molchi ruhiyatiga ta’sir etish mexanizmlarini ochib berish hamda o‘zbek reklama tilining ekolingvistik parametrlarini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

reklama matni va diskursini pragmatik, psixolingvistik va kognitiv aspektlarda tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish hamda ekspressiv vositalarning pragma-kognitiv tasnifini ishlab chiqish;

o‘zbek reklama matnlarida fonetik va grafik vositalarning attraktiv (e’tiborni jalb qilish) hamda suggestiv (ishontirish va undash) ta’sir imkoniyatlarini aniqlash, ularning gender va sotsiomadaniy xususiyatlarini baholash;

[26] Юсупова К.К. Ўзбек тилидаги реклама матнларида императивлик ва унинг ифодаланиши. Филол. фан. ... PhD дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 15; Мамирова Д.Ш. Ўзбек реклама матнларининг социолингвистик хусусиятлари. Филол. фан. ... PhD дисс. – Тошкент, 2024. – Б. 18; Бакадиров Ж.А. Ўзбек ва инглиз тилларидаги ижтимоий рекламаларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. ... PhD дисс. – Тошкент, 2023. – Б. 20; Аллаберганова Н.М. Ўзбек тилидаги реклама матнларининг лингвокогнитив хусусиятлари: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) … дисс. автореф. – Тошкент, 2026. – Б. 14.

[27] Жумаев О. Реклама матнларида неологизмларнинг ўрни // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 6. – Б. 70; Buzrukova M. O‘zbek badiiy matnida undash konstruksiyalari // Хорижий филология. – Самарқанд, 2020. – № 1. – B. 108; Мустафаев Ш.Н., Булатов С.С. Нажмиддин Кубронинг “Латоиф назарияси” // Journal of Iqro. – Самарқанд, 2024. – Б. 102; Булатов С.С., Аханов Б. Ранг психологияси. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 45.

reklamada qo‘llanilgan ekspressiv leksika va chegaralangan qatlam so‘zlarining lingvomadaniy konnotatsiyalarini hamda manipulyativ ishontirish strategiyalaridagi o‘rnini asoslash;

o‘zbek reklama matnlarida ekspressiv morfologiya (subyektiv baho affikslari, xorijiy prefikslar, fe’l mayllari) va sintaktik qurilmalarning (inversiya, ellipsis, parsellyatsiya, ritorik so‘roqlar) pragmatik vazifalarini dalillash;

reklama tilida adabiy me’yorlardan chekinish (lisoniy ximeralar, gibridizatsiya, lisoniy vandalizm) holatlarini ekolingvistik va tanqidiy diskurs-tahlil nuqtayi nazaridan baholash hamda sohani muvofiqlashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tilidagi tijoriy va ijtimoiy reklama matnlari (matbuot, televideniye, radio, tashqi reklama bannerlari va internet tarmog‘i/ijtimoiy tarmoqlardagi reklama materiallari) tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek reklama matnlarida qo‘llanilgan fonetik-grafik va leksik-grammatik birliklarning ekspressiv-pragmatik, psixolingvistik va ekolingvistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada pragmalingvistik tahlil, kognitiv-diskursiv tahlil, tanqidiy diskurs-tahlil, psixolingvistik va neyrolingvistik yondashuvlar, etnolingvistik tahlil va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

reklama matni va reklama diskursining pragma-kognitiv hamda psixolingvistik tabiati chegaralanib, ekspressiv vositalarning an’anaviy lingvo-struktural tasnifidan farqli ravishda yangi pragma-kognitiv tasnifi ishlab chiqilgan;

o‘zbek reklama diskursida fonetik va grafik vositalarning maqsadli auditoriyaga (jumladan, gender va ijtimoiy guruhlarga) yo‘naltirilgan vizual-lingvistik ta’sir kodlari ochib berilgan;

leksik sathda neologizm va okkazionalizmlar, troplar, shuningdek, toponim va pragmatonimlarning “illokutiv aldov” va “lisoniy-hududiy ta’sirlantirish” vositasi sifatidagi kognitiv funksiyalari hamda chegaralangan leksikaning intimizatsiya hosil qilishdagi o‘rni dalillangan;

grammatik sathda affikslarning subyektiv-baholovchi va xaridor ongostiga ta’sir qiluvchi xususiyatlari, shuningdek, shart, ijro mayllari va uchinchi shaxs orqali imperativlikning yumshatib berilishi (o‘zbekona andisha pragmatikasi) ochib berilgan;

reklama tilidagi me’yordan og‘ishlar ekolingvistika va tanqidiy diskurs-tahlil nuqtayi nazaridan baholanib, o‘zbek tilshunosligida ilk bor “lisoniy ximera” va “lisoniy immunitet” konsepsiyalari reklama diskursi asosida ilmiy iste’molga kiritilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: reklama yaratuvchilari va marketologlar uchun o‘zbek tilining milliy-kognitiv tabiatiga mos va xaridor ongiga ta’sir etuvchi samarali lisoniy vositalar tizimi taqdim etilgan; internet, televideniye va tashqi reklama matnlarini filologik ekspertizadan o‘tkazishning ekolingvistik va pragmatik mezonlari ishlab chiqilgan hamda matnlardagi lisoniy vandalizm holatlarini bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tanlangan nazariy-metodologik yondashuvlarning zamonaviy ilm-fan talablariga mosligi, OAV, internet va tashqi reklamalardan olingan minglab faktik materiallarning keng ko‘lamliligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda olingan natijalarning respublika va xorijiy nufuzli ilmiy nashrlarda e’lon qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda erishilgan xulosalar va yangi nazariy konsepsiyalar o‘zbek pragmalingvistikasi, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika va ekolingvistika fanlarining nazariy bazasini boyitadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati dissertatsiya materiallaridan OTMlarning filologiya va jurnalistika fakultetlarida “Pragmalingvistika”, “Medialingvistika”, “Kognitiv tilshunoslik”, “Reklama psixologiyasi” fanlari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar yaratishda, shuningdek, reklama agentliklari va filologik ekspertiza markazlari faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Reklama matnlarida fonetik-grafik va leksik-grammatik birliklarning ekspressiv xususiyatlarini tadqiq etish, xususan, reklama diskursining pragma-kognitiv tabiati, til birliklarining kommunikativ ta’sirchanligi hamda ekolingvistik xususiyatlari bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

reklama matnlaridagi fonetik-grafik hamda leksik-grammatik vositalarning ekspressiv-pragmatik imkoniyatlari, til birliklarining kommunikativ ta’sirchanligi va lingvoekologik xususiyatlariga oid ishlab chiqilgan ilmiy xulosa hamda tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutida 2024–2025-yillarda bajarilgan AL-662204328 raqamli “Sport terminlarining o‘zbek tilidagi izohli lug‘atini tuzish va nashr qilish (lug‘atning mobil ilovasi va veb-saytini yaratish)” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2026-yil 30-iyuldagi 3/1255-2170-son ma’lumotnomasi). Natijada sport terminlari izohli lug‘ati maqolalarini ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirishga, termin izohlarining aniqligi, tushunarliligi va kommunikativ samaradorligini oshirishga, shuningdek, lug‘atning ilmiy-metodik asoslarini boyitishga erishilgan;

so‘z yasalishi jarayonida hosil bo‘ladigan til birliklarining reklama diskursida emotsional-ekspressiv mazmun kasb etishi, baholovchi semantikasi hamda pragmatik vazifalarini tavsiflash, derivatsion birliklarning ekspressiv imkoniyatlarini yoritishda fonetik-grafik vositalar, ekspressiv affikslar, baholovchi leksik birliklar hamda grammatik shakllarning funksional-semantik xususiyatlari bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2024–2025-yillarda amalga oshirilgan “Hozirgi qoraqalpoq tilidagi so‘z yasalish tizimining nazariy asoslari” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2026-yil 27-iyuldagi 352/1-son ma’lumotnomasi). Natijada reklama diskursida fonetik-grafik hamda leksik-grammatik vositalarning ekspressiv-pragmatik salohiyatini hisobga olish zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan;

reklama matnlarining ta’sirchanligini oshirish, ularni ixcham, ravon va esda qolarli shaklda tuzish, fonetik uyg‘unlik, takror, alliteratsiya, baholovchi so‘zlar hamda boshqa ekspressiv til vositalaridan o‘rinli foydalanish bo‘yicha berilgan tavsiyalardan “Renessans TV” telekanalida efirga uzatiladigan “Zargarshop” tijoriy ko‘rsatuvining mahsulot taqdimotlari, reklama matnlari, efir anonslari va promo roliklarini tayyorlash, shuningdek, “Renessans minbari” ko‘rsatuvining efiroldi anonslari va telekanalning ijtimoiy roliklari matnlarini tayyorlash hamda tahrir qilish jarayonida foydalanilgan (“Renessans TV” telekanalining 2026-yil 3-avgustdagi 112/2026-son ma’lumotnomasi). Natijada telekanalda tayyorlanayotgan reklama mahsulotlarining matniy sifati, ta’sirchanligi va auditoriya uchun jozibadorligi oshirilishiga hamda matnlarning mazmunan aniq, usluban ravon va tomoshabin xotirasida yaxshi saqlanadigan shaklda tayyorlanishiga erishilgan.

reklama matnlarining ekspressivligini oshirish, auditoriya e’tiborini jalb etuvchi vositalardan maqsadli foydalanish, reklama mazmuniga mos shrift va grafik yechimlarni tanlash, ranglarning psixologik ta’siridan samarali foydalanish, reklama amaliyotida ommaviy iste’molchi uchun tushunarli va faol qo‘llaniladigan o‘zlashma birliklar hamda xalqaro marketing terminlarini kommunikativ maqsadga muvofiq qo‘llashga oid tavsiyalardan “FIDO studio” reklama agentligining mamlakatimizda faoliyat yurituvchi yirik banklardan biri - “Hamkorbank” ATB uchun ishlab chiqilgan reklama kampaniyalari, videoroliklar, raqamli reklama materiallari, ijtimoiy tarmoqlar uchun reklama postlari va promo matnlarini yaratish hamda tahrir qilish jarayonida foydalanilgan (“FIDO studio” reklama agentligining 2026-yil 3-avgustdagi 19/26-08-son ma’lumotnomasi). Natijada agentlik faoliyatida reklama matnlarini yaratish va tahrir qilish jarayoni yanada takomillashtirilib, reklama kampaniyalarining umumiy samaradorligi sezilarli darajada oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 22 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, shundan 3 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 263 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini tasdiqlovchi ma’lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi **“Reklama matnlarining lingvouslubiy va pragmatik tadqiqining nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanadi. Dissertatsiyaning birinchi bobining ilk fasli **“Reklama matni: tushunchasi, o‘ziga xos xususiyatlari va tilshunoslikda o‘rganilishi”** tarzida belgilangan. Zamonaviy tilshunoslikda tilni sof struktural hodisa sifatida o‘rganishdan voz kechilib, uning inson va jamiyat bilan uzviyligini tadqiq etuvchi antropotsentrik paradigmaga o‘tilishi reklama tilini ham yangicha metodologik asosda o‘rganishni taqozo etdi. Tadqiqotda *matn* va *diskurs* tushunchalarining ontologik chegaralari qat’iy belgilandi. Matn obyektiv borliqdagi voqea va hodisalarning leksik, grammatik va mantiqiy jihatdan tugallangan lisoniy ifodasi bo‘lsa[28], diskurs ana shu matnning muloqot maqsadi, ijtimoiy-madaniy vaziyat va psixologik omillar bilan birga real hayotda voqelanishidir[29]. Shu bois, mazkur ishda lisoniy vositalarning tuzilishi tahlil qilinganda “reklama matni”, ularning iste’molchi ruhiyatiga ta’siri va pragmatik maqsadi yoritilganda “reklama diskursi” atamalaridan foydalanish ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot doirasida an’anaviy muloqot turlaridan keskin farq qiluvchi reklama diskursining to‘rtta asosiy xususiyati ajratib ko‘rsatildi:

1. Reklamada xolis axborot berish emas, balki xaridorni ishontirish va xaridga undash (perlokutiv samara) birlamchi o‘rinda turadi[30].
2. Reklama millionlab ommaviy auditoriyaga qaratilsa-da, matn xuddiki bir shaxsga shivirlab aytilayotgandek yashirin dialogik shaklda tuziladi[31].
3. Reklama matni so‘z (verbal) va tasvir, rang, ohang (noverbal) unsurlarining mukammal sintezidan iborat bo‘lib, bu komponentlar bir-birini to‘ldirmasa, pragmatik maqsad ro‘yobga chiqmaydi[32].
4. Intimizatsiya va psixolingvistik manipulyatsiya. Xaridordagi tabiiy himoya (shubha) to‘sig‘ini yengib o‘tish uchun reklama sun’iy do‘stona yoxud oilaviy yaqinlik (intimizatsiya) muhitini yaratadi hamda inson ongini yashirin boshqaradi.

Jahon[33] va o‘zbek tilshunosligida reklama matnlarining o‘rganilish tarixi tizimlashtirilib, u uchta mantiqiy bosqichga ajratildi:

Birinchi bosqich – *jurnalistika va umumiy uslubiyat doirasidagi kuzatishlar*. Bu davrda reklamalarning OAVdagi o‘rni, tarixiy va uslubiy xususiyatlari[34],

---

[28] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б. 24.; Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – Москва: Наука, 1981. – С. 18.

[29] Арутюнова Н.Д. Дискурс // Лингвистический энциклопедический словарь. – Москва: СЭ, 1990. – С. 136.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 34.

[30] Остин Дж.Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. – Москва: Прогресс, 1986. – С. 122.

[31] Тоҳиров З.Т. ОАВ рекламалари услубияти назарияси ва амалиёти. – Тошкент: Университет, 2006. – Б. 22.

[32] Анисимова Е.Е. Лингвистика текста и межкультурная коммуникация. – Москва: Академия, 2003. – С. 71.

[33] Кара-Мурза Е.С. Лингвистическая экспертиза рекламного дискурса // Культура речи и эффективное общение. – Москва: Флинта, 2005. – С. 250.; Холиқулова Ш. Туркистон матбуотида эълон ва рекламалар (XIX аср охири – XX аср бошлари): Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2006. – Б. 24.

[34] Абдуазизова Н. Миллий уйғониш даври ўзбек матбуоти тарихи. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б. 86. ; Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – Б. 12.

shuningdek, til sofligi va peshlavhalardagi g‘alizliklar sotsiolingvistik muammo sifatida tadqiq qilingan[35].

Ikkinchi bosqich – *pragmatik va leksik-grammatik tahlillar davri.* Milliy pragmalingvistika poydevori shakllangach[36], reklama lingvistikasining nazariyasi[37], reklamadagi yashirin ma’nolar va neologizmlar[38], shuningdek, imperativlik va sintaktik qurilish masalalari maxsus tadqiq etildi[39].

Uchinchi bosqich – *kognitiv, psixolingvistik va etnomadaniy yondashuvlar.* Bugungi kunda reklama diskursini matn antropotsentrizmi, ijtimoiy qadriyatlar va lingvokognitiv xususiyatlar kesimida o‘rganish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda[40].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, o‘zbek tilshunosligida ushbu sohada salmoqli ishlar qilinganiga qaramay, o‘zbek reklama matnlarida fonetik-grafik va leksik-grammatik birliklarning ekspressiv-pragmatik xususiyatlarini polikodli hamda manipulyativ diskurs sifatida, milliy etnopragmatika tamoyillari asosida yaxlit, monografik tadqiq etish bugungi filologiya ilmining dolzarb vazifasi bo‘lib qolmoqda.

Bobning ikkinchi fasli **“Tilshunoslikda ekspressivlik hodisasi: mohiyati, turlari va ifodalanish sathlari”** deb nomlanadi. Zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikda til shunchaki axborot uzatish vositasi emas, balki insonning ichki ruhiy olami, his-tuyg‘ulari va maqsadli ta’sir etish quvvatini namoyon qiluvchi o‘ta murakkab tizim sifatida baholanadi[41]. Tadqiqot doirasida reklama diskursining pragmatik negizini tashkil etuvchi ekspressivlik hodisasining nazariy-metodologik mohiyati va uning til sathlarida voqelanish mexanizmlari chuqur tahlilga tortildi.

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, *emotsionallik*, *baholash* va *ekspressivlik* tushunchalari ko‘pincha qorishtirilsa-da, ular funksional jihatdan qat’iy farqlanadi. Emotsionallik bevosita insonning ruhiy-hissiy kechinmalarini ifodalasa[42], baholash voqelikka nisbatan mantiqiy-axloqiy hukmni anglatadi[43]. Ekspressivlik esa ushbu ikki hodisaning intensivligini (ta’sir kuchini) bo‘rttirib ko‘rsatuvchi hamda lisoniy axborotning adresatga etib borish shiddatini oshiruvchi kengroq lingvistik qurol

---

[35] Мамирова Д.Ш. Ўзбек реклама матнларининг социолингвистик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2024. – Б. 14..; Чиниқулов Н. Пешлавҳаларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 22.

[36] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 45.; Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. доктори ... дисс. – Тошкент, 2001. – Б. 34. ; Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. доктори ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 28.

[37] Абдуллаев Б.Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2020.

[38] Жумаев О. Реклама матнларини адресатга етказиш усул ва воситалари // Ўзбекистон. Миллий ун-ти хабарлари. – 2013. – № 1. – Б. 193–195.

[39] Юнусова Ш.М. Реклама матнларининг синтактик қурилиши ва уларнинг прагматик хосланиши: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 26.

[40] Аллаберганова Н.М. Ўзбек тилидаги реклама матнларининг лингвокогнитив хусусиятлари: Филол. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD) … дисс. автореф. – Тошкент, 2026. – Б. 14.; Бакадиров Ж.А. Ўзбек ва инглиз тилларидаги ижтимоий рекламаларнинг лингвомаданий тадқиқи. Филол. фан. ... PhD дисс. – Тошкент, 2023.

[41] Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Изд-во иностранной литературы, 1961. – С. 142.

[42] Галкина-Федорук Е.М. Об экспрессивности и эмоциональности в языке // Сборник статей по языкознанию. – Москва: МГУ, 1958. – С. 103.; Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б. 14. ; Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 1997. – С. 142. ; Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций. – Москва: Гнозис, 2008. – С. 52.

[43] Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – Москва: Наука, 1988. – С. 75.

sanaladi[44]. Pragmalingvistik nuqtayi nazardan, ekspressivlik so‘zlovchining illokutiv niyatini maksimal darajaga olib chiqib, muqarrar perlokutiv samarani (tinglovchini harakatga undashni) ta’minlaydi.

Tilshunoslikda ekspressivlikning tabiati o‘zining kelib chiqishiga ko‘ra ikki yirik turga: lug‘aviy ma’noning o‘ziga xos bo‘lgan *lisoniy (ingerent)* va muayyan kontekst yoki majoziy qo‘llanish natijasida yuzaga keladigan *nutqiy (adgerent)* ekspressivlikka[45] ajratib o‘rganildi. Shuningdek, ekspressivlikning lisoniy ierarxiya – barcha til sathlarida o‘zaro sinergetik munosabatda voqelanishi quyidagicha tizimlashtirildi:

1. Fonetik va grafiko-fonologik sath. Tovushlarning maqsadli takrori (alliteratsiya, assonans) hamda onomatopeya hodisalari kross-modal muvofiqlik (sinesteziya) asnosida inson ruhiyatida hajm, harorat va shiddat kabi assotsiatsiyalarni avtomatik tarzda uyg‘otadi[46].
2. Leksik-semantik va frazeologik sath. O‘zbek tilining boy lug‘at xazinasi, sinonimik qatorlar, iboralar[47] hamda metafora va metonimiya kabi badiiy ko‘chimlar mahsulotning hissiz, quruq ko‘rsatkichlarini iste’molchiga yaqin bo‘lgan milliy-madaniy obrazlarga ko‘chiradi[48].
3. Morfologik va derivatsion sath. Agglyutinativ tabiatga ega o‘zbek tilida erkalash, kichraytirish (subyektiv baho) affikslari qabul qiluvchi bilan oradagi ijtimoiy masofani qisqartirsa, fe’l mayllarining pragmatik qo‘llanilishi harakatga undovning keskinligini pasaytiradi.
4. Sintaktik sath. Gapning mantiqiy-grammatik qurilishidagi ongli burilishlar – inversiya, ellipsis (tushiriq)[49], parsellyatsiya va ritorik so‘roqlar nutqning tezkorligi hamda emotsional shiddatini oshirib, iste’molchini passiv tinglovchidan faol hammuallifga aylantiradi.

Psixolingvistik va neyrolingvistik yondashuvlarga ko‘ra, betaraf axborot inson miyasida "sensor charchoq"ni yuzaga keltiradi[50]. Ekspressiv vositalar esa I.Pavlovning “mo‘ljallash refleksi”ni ishga tushirish orqali xaridorning mantiqiy-tanqidiy to‘siqlarini buzib o‘tadi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri ongosti (o‘ng miya yarim shari) markazlariga ta’sir qiladi[51].

Bobning uchinchi fasli **“Reklama matnlarida ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi lisoniy vositalar tasnifi masalalari”**dir. Zamonaviy tilshunoslikda har qanday murakkab lisoniy hodisani chuqur anglash va uning yashirin qonuniyatlarini ochib berish uchun uni muayyan mantiqiy hamda vazifaviy mezonlar asosida tizimlashtirish taqozo etiladi. An’anaviy struktural tilshunoslikda lisoniy vositalar asosan ularning shakliy-grammatik xususiyatlariga ko‘ra statik

---

[44] Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – Москва: Наука, 1986. – С. 112.

[45] Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. Б. 23.; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 14.

[46] Воронин С.В. Основы фоносемантики. – Ленинград: ЛГУ, 1982. – С. 68. ; Spence C. Crossmodal correspondences: A tutorial review // Attention, Perception, & Psychophysics. – 2011. – Vol. 73. – P. 972.

[47] Рустамов А. Сўз хусусида сўз. – Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – Б. 14.

[48] Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992. – Б. 12.

[49] Маҳмудов Н. Эллипсис в узбекском языке: Автореф. дисс. …канд. филол. наук. – Тошкент, 1978.

[50] Лебедев-Любимов А.Н. Психология рекламы. – СПб.: Питер, 2002. – С. 140.

[51] Павлов И.П. Полное собрание сочинений. Т. 3. Кн. 1. – М.: Изд-во АН СССР, 1951.

holatda tasniflangan bo‘lsa, zamonaviy antropotsentrik va pragmatik paradigmalar til birliklariga inson ongiga ta’sir o‘tkazuvchi dinamik mexanizm sifatida yondashishni talab qiladi. Sh.Safarov ta’kidlaganidek, nutqiy akt jarayonida har bir lisoniy vosita so‘zlovchining pragmatik niyatini ro‘yobga chiqaruvchi harakat sifatida baholanishi lozim[52].

Jahon va o‘zbek tilshunosligida (xususan, I.A.Sternin[53], N.Mahmudov[54], R.Qo‘ng‘urov[55] tadqiqotlarida) ilgari surilgan nazariy yondashuvlarni umumlashtirgan holda, mazkur tadqiqot doirasida o‘zbek reklama matnlaridagi ekspressiv vositalarning yaxlit, o‘zaro uzviy bog‘liq ikkita yirik – lingvo-struktural hamda pragma-kognitiv (psixolingvistik) tasnifi ishlab chiqildi.

I. Lingvo-struktural tasnif. Mazkur tasnif ekspressiv vositalarning til qurilishi sathlariga ko‘ra ierarxik guruhlanishini ifodalaydi va matnning qanday lisoniy unsurlardan qurilganligini ko‘rsatadi:

1. Fonetik va grafiko-fonologik vositalar. Bunga matnning musiqiyligi va ritmini ta’minlovchi evfonik vositalar (alliteratsiya, assonans), kross-modal ta’sirga ega fonosemantik birliklar (onomatopeya)[56] hamda shrift o‘yinlari va polikodli matn vizualizatsiyasi kiradi.

2. Leksik-semantik va frazeologik vositalar. Reklama matnining kognitiv o‘zagini tashkil etuvchi bu guruhga baholovchi leksika, badiiy ko‘chimlar (metafora, metonimiya), shuningdek, diqqatni tortuvchi neologizm, okkazionalizm va chegaralangan qatlam so‘zlari (sheva, jargon) kiritildi.

3. Morfologik va derivatsion vositalar. O‘zbek tilining agglyutinativ imkoniyatlaridan kelib chiqib, subyektiv baho affikslari (erkalash, hurmat), xorijiy prefikslar (super-, mega-) va fe’l mayllarining transpozitsion pragmatik xususiyatlari guruhlandi.

4. Sintaktik vositalar. So‘z tartibining ongli buzilishi (inversiya), ellipsis, parsellyatsiya hamda ritorik so‘roqlar xabar shiddatini oshiruvchi sintaktik figuralar sifatida tizimlashtirildi.

II. Pragma-kognitiv va psixolingvistik tasnif. Mazkur innovatsion tasnif lisoniy vositalarning iste’molchi ongida qanday reaksiya uyg‘otishiga, ya’ni nutqiy ta’sirning qaysi bosqichida xizmat qilishiga qarab to‘rtta pragmatik blokka ajratildi:

1. Attraktorlar (diqqatni jalb qiluvchi vositalar). Mantiqiy stereotiplarni buzuvchi grafik anomaliyalar, kutilmagan neologizmlar va provokatsion so‘zlar xaridorning “axborot shovqini”dagi filtrini yorib o‘tishga xizmat qiladi.

2. Fatik vositalar (ishonchli aloqa o‘rnatuvchilar). Sheva so‘zlari, deminutiv affikslar, xalq maqollari va ritorik murojaatlar orqali rasmiy masofa qisqartirilib, xaridor bilan sun’iy do‘stona (intimizatsiya) muhit yaratiladi.

---

[52] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 120-122.

[53] Стернин И.А. Основы речевого воздействия. – Воронеж: Истоки, 2012. – С. 64-68.

[54] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б. 24.

[55] Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий воситалар. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 54-56.

[56] Ташкинова В.А. Фоносемантическая структура поликодового текста. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пермь, 2022. – С. 166-170.

3. Suggestorlar (ongostiga singdiruvchi vositalar). Mantiqiy dalillarni aylanib o‘tuvchi metaforalar, oliy darajadagi giperbolalar va murakkab kasbiy terminlar xaridorga mahsulotni mutlaq yechim sifatida yashirin tirkash (manipulyatsiya) vazifasini bajaradi.

4. Argumentatorlar (ratsional ishontiruvchi vositalar). Sintaktik gradatsiya, aniq raqamlar, parallelizm va qat’iy modal so‘zlar iste’molchida o‘z xaridining mantiqan to‘g‘riligiga mutlaq ishonch hosil qiladi.

Xulosa o‘rnida qayd etish mumkinki, o‘zbek reklama diskursining muvaffaqiyati va uning yakuniy perlokutiv samaradorligi mazkur lingvo-struktural vositalar hamda ularning pragma-kognitiv vazifalari o‘rtasidagi mukammal sinergiyaga bevosita bog‘liqdir. Muallif lisoniy shaxs sifatida o‘z maqsadiga erishish uchun ushbu arsenalning eng o‘tkir elementlarini saralab oladi va iste’molchi tafakkurini to‘liq qamrab oluvchi yaxlit psixolingvistik arxitekturani yaratadi.

Birinchi bobning yakunlovchi to‘rtinchi fasli **“Reklama matnlarini tadqiq etishning zamonaviy metodlari va integrativ yondashuvlari”** tarzida belgilangan. Tilshunoslikda an’anaviy strukturalizmdan inson omilini markazga qo‘yuvchi antropotsentrik paradigmaga o‘tilishi tilni tadqiq etish metodologiyasini tubdan o‘zgartirdi. N.Mahmudov ta’kidlaganidek, tilni faqat aloqa vositasi sifatida talqin etish uni jo‘nlashtirish bo‘lib, tilni inson ruhiyati, tarixi va milliy dunyoqarashi bilan uzviylikda o‘rganishgina haqqoniy ilmiy xulosalar beradi[57]. Shu nuqtayi nazardan, reklama diskursidek murakkab ijtimoiy-ruhiy va manipulyativ fenomenning lisoniy tabiatini yoritishda an’anaviy tavsifiy usullardan voz kechilib, jahon ilm-fanida sinovdan o‘tgan integrativ metodlar tizimi ishlab chiqildi:

1. Pragmalingvistik va nutqiy aktlarning tahliliy metodi. J.Ostin va J.Serlning nutqiy aktlar nazariyasiga tayanuvchi bu metod[58] reklama matniga so‘zlovchining ishontirish niyatini o‘zida mujassam etgan maqsadli harakat sifatida qaraydi. Sh.Safarov va M.Hakimovlarning ta’limotlariga muvofiq, matnning sintaktik va leksik tanlovi bevosita so‘zlovchining illokutiv maqsadi (yashirin niyati) bilan belgilanadi[59]. Metod orqali P.Graysning “kommunikativ hamkorlik” tamoyillarining[60] reklamada ongli ravishda buzilishi va bu orqali iste’molchiga manipulyativ ta’sir o‘tkazish mexanizmlari fosh etiladi.

2. Psixolingvistik va neyrolingvistik yondashuvlar. A.A.Leontyev asos solgan psixolingvistik ta’limot orqali so‘zning mantiqiy ma’nosidan ko‘ra, uning inson asab tizimidagi (miyaning o‘ng va chap yarim sharlaridagi) hissiy-obrazli aks-sadosi o‘rganiladi[61]. D.Uznadzening “ruhiy yo‘naltirish” nazariyasi[62],

---

[57] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017. – Б. 3.

[58] Остин Дж. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. – М.: Прогресс, 1986. – С. 22-129; Сёрл Дж. Р. Что такое речевой акт? // Новое в зар. лингвистике. Вып. 17. – М., 1986. – С. 151-169.

[59] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 12.; Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 42.

[60] Грайс Г.П. Логика и речевое общение // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. – Москва: Прогресс, 1985. – С. 217-237.

[61] Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – Москва: Смысл, 1997. – С. 142.

[62] Узнадзе Д.Н. Общая психология. – Москва: Смысл, 2004. – С. 89.

N.Mahmudovning assotsiativ tadqiqotlari[63], shuningdek, semantik differensial, lahzaviy ko‘rish idroki[64] hamda kognitiv uslublar[65] orqali reklama tilining ongostiga singdirish quvvati o‘lchanadi.

3. Kognitiv-diskursiv va konseptual tahlil usuli. Y.S.Kubryakova, D.Xudoyberganova kabi olimlarning nazariyalariga ko‘ra, reklama matni inson miyasidagi madaniy qoliplar (konseptlar)ni ishga tushiruvchi lisoniy triggerdir[66]. J.Lakoff va M.Jonsonning konseptual metafora nazariyasi asosida mavhum iqtisodiy tushunchalarning milliy obrazlarga ko‘chirilishi tahlil qilinadi. Etnolingvistik yondashuv orqali lisoniy vositalar zamirida o‘zbek xalqining ming yillik qadriyatlari (andisha, mehr) qay tarzda faollashuvi ochib beriladi[67].

4. Tanqidiy diskurs-tahlil va ekolingvistik yondashuv. T. van Deyk va N.Ferklo tomonidan asoslangan bu metod[68] jozibali reklama so‘zlari ortidagi soxta qadriyatlar va illokutiv aldovlarni tanqidiy baholaydi. Shu bilan birga, A.P.Skovorodnikov va V.G.Kostomarovlarning ekolingvistik tamoyillariga tayanib[69], reklama makonidagi lisoniy o‘yinlar, xorijiy o‘zlashmalar va jargonlarning ona tili sofligiga ta’siri (lisoniy vandalizm) ilmiy ekspertizadan o‘tkaziladi.

5. Korpus lingvistikasi va miqdoriy-sifatiy modellashtirish. Axborot texnologiyalariga tayangan ushbu metod yuzlab reklama matnlarini raqamli bazaga jamlab, ekspressiv lisoniy vositalarning uchrash chastotasini (statistik dalillarni) aniqlaydi va ushbu raqamlarni semantik-pragmatik jihatdan sharhlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O‘zbek reklama matnlarida fonetik-grafik vositalarning ekspressiv-pragmatik xususiyatlari”** deb nomlanadi va bir necha fasldan iborat. Bobning birinchi fasli **“Fonetik vositalarning ekspressivlikni ta’minlashdagi o‘rni va pragmatik vazifalari”** deb nomlangan. Zamonaviy reklama diskursi ko‘p belgili tizim sifatida nafaqat matn mazmuni, balki uning fonetik va vizual shakli orqali ham kuchli perlokutiv ta’sir o‘tkazadi[70]. Tadqiqotda aniqlanishicha, reklama matnida fonetik vositalar shunchaki lisoniy bezak emas, balki xaridor diqqatini keskin jalb qiluvchi (attraktiv), brend nomini xotirada mustahkam muhrlovchi (mnemonik) va iste’molchini bevosita xaridga undovchi o‘ta kuchli pragmatik mexanizm hisoblanadi.

---

[63] Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент: Mumtoz so‘z, 2017

[64] Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – С. 56.

[65] Кёниг Т. Психология рекламы. – Москва: Изд-во Н.А. Столяр, 1925. – С. 114.

[66] Кубрякова Е.С. Язык и знание. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – С. 92. ; Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.

[67] Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – Б. 12. ; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – С. 214.

[68] Дейк Т.А. ван. Дискурс и власть: Репрезентация доминирования в языке. – Москва: Либроком, 2013. – С. 45.

[69] Сковородников А.П. Экология русского языка. – Красноярск: СФУ, 2016. – С. 25. ; Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. Из наблюдений над речевой практикой масс-медиа. – Москва: Педагогика, 1994. – С. 84.

[70] Бове К.Л., Аренс У.Ф. Современная реклама / Пер. с англ. — Тольятти: «Издательский дом Довгань», 1995. – 704 с. ; Анисимова Е. Е. Лингвистика текста и межкультурная коммуникация (на материале креолизованных текстов). – М.: Академия, 2003. – 128 с.

Tadqiqotda tovushlar takrori (alliteratsiya va assonans) global fonosemantika qonuniyatlari[71] hamda o‘zbek mumtoz adabiyotidagi *tavzi’* san’atining[72] o‘ziga xos sintezi sifatida baholandi. Pragmalingvistikadagi *kross-modal muvofiqlik* (sinesteziya) nazariyasiga ko‘ra, maqsadli tanlangan undoshlar va unlilar takrori xaridor ongostida mahsulotning fizik va hissiy xususiyatlarini avtomatik tarzda gavdalantiradi[73]. Xususan, jarangli va portlovchi undoshlar (B,D)(K,Q,T,) jarangsiz portlovchilar baraka, qat’iyat, ishonch va pishiqlikni; sirg‘aluvchi va sonor undoshlar (M, L, N) tezlik, (S, Z kabi) jarangli va jarangsiz shovqinli undoshlar harakatchanlik, mayinlik va lazzatni ifodalovchi psixologik signal (kod) vazifasini o‘taydi. Assonans hodisasida esa ochiq va unlilar (A, O) inson ruhiyatida mahsulotga nisbatan kenglik, salmoq, xavfsizlik va ulug‘vorlik ma’nolarini vizuallashtirishi isbotlandi[74].

Reklama matnlarida marom va qofiya (saj’) iste’molchi xotirasida eng uzoq saqlanuvchi lisoniy langar bo‘lib xizmat qiladi. Ular fonostilistik ikonizm sifatida matnning pragmatik maqsadini amalga oshiradi[75]. Qofiyaning pragmatik turlari, jumladan, maqol yoxud hikmatli so‘z shaklidagi qofiyalar millatning lingvomadaniy kodlarini faollashtirib, xaridorda qadrdonlik va so‘zsiz ishonch uyg‘otadi. Brend nomining ijobiy semali so‘zlar bilan qofiyalanishi esa mahsulot imijini keskin oshirib, barcha ijobiy hissiyotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri xosnom ustiga ko‘chiradi[76].

Onomatopeya (taqlid so‘zlar) va fonetik ramziylik orqali mahsulotning akustik yoki fizik xususiyatlari (tezlik, qarsillash, yengillik) ortiqcha lisoniy tavsiflarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri xaridorning sensor idrokiga uzatiladi. Tadqiqotda bu holat *ikonik kongruentlik* (verbal so‘z va noverbal fizik xususiyat o‘rtasidagi mutlaq psixologik moslik) sifatida baholanib, reklama diskursida lisoniy tejamkorlik va maksimal ta’sirchanlikni ta’minlashi dalillandi[77].

Bobning ikkinchi fasli **“Grafik vositalarning ekspressiv-pragmatik tahlili”** tarzida belgilangan. Zamonaviy reklama diskursida matn faqatgina so‘zlardan iborat bo‘lmay, verbal va noverbal (shrift, rang, logogramma, kompozitsiya) unsurlarning uzviy sintezidan iborat polikodli (kreollashgan) tizim sanaladi[78]. Tadqiqotda grafik vositalarning xaridor ongiga “birlamchi vizual idrok”

---

[71] Воронин С. В. Основы фоносемантики. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1982. – С. 244.
[72] Alisher Navoiy ensiklopediyasi. IV jild. – Toshkent, 2024. – B. 12.
[73] Ташкинова В. А. Фоносемантическая структура поликодового текста. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пермь, 2022. – С. 166-170.
[74] Köhler, W. Gestalt psychology. - New York, 1923. - 409 p.; Sapir, E. A study in phonetic symbolism // J. Exp. Psychol. - 1929. - Vol. 12. - P. 225.
[75] Ташкинова В. А. Фоносемантическая структура поликодового текста. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пермь, 2022. – С. 167.
[76] Klink, R. R. Creating Brand Names with Meaning: The Use of Sound Symbolism // Mark. Lett. - 2000. - Vol. 11. - P. 10-15.
[77] Ташкинова В. А. Фоносемантическая структура поликодового текста. Дисс. ... канд. филол. наук. – Пермь, 2022. – С. 166.
[78] Сорокин Ю.А., Тарасов Е.Ф. Креолизованные тексты и их коммуникативная функция // Оптимизация речевого воздействия. – М., 1990. – С. 180-186. ; Бернацкая А.А. К проблеме «креолизации» текста: история и современное состояние // Речевое общение: Вестник Российской риторической ассоциации. – Красноярск, 2000. – Вып. 3 (11). – С. 104-110.

orqali kuchli ta’sir o‘tkazuvchi va matnning ekspressiv-pragmatik salohiyatini belgilovchi mustaqil lisoniy-vizual qurol ekanligi asoslandi[79].

Shrift pragmatikasi tahlilida shrift shunchaki texnik vosita emas, balki xabarning emotsional va ijtimoiy qiyofasini belgilovchi ikonik belgi sifatida baholandi[80]. O.V.Osetrovaning “shriftli troplar” nazariyasiga muvofiq[81], reklamadagi harflar mahsulotning jismoniy xususiyatini vizuallashtiradi. Masalan, qalin va burchakli shriftlar ishonch, pishiqlik va erkaklarga xoslikni, nafis kursivlar esa estetika va elitarlikni bildiradi. Shriftning bunday tanlanishi verbal xabarning ta’sir kuchini bir necha barobar oshiradi.

Tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida ranglarning reklama matnlaridagi ta’siri o‘rganildi. Rang idroki shunchaki fiziologik hodisa emas[82], balki millatning tarixiy xotirasi va lingvomadaniy kodlariga bevosita bog‘liq ekanligi isbotlandi[83]. O‘zbekistonda rang semantikasining ildizlari Najmiddin Kubroning “Latoif nazariyasi” hamda mumtoz poetikamizdagi ramziy talqinlarga borib taqaladi[84]. Tahlillar natijasida quyidagi xromatik kodlar ajratib ko‘rsatildi:

Oq rang o‘zbek mentalitetida islomiy poklik, halollik, shifo va mutlaq ishonch belgisi bo‘lib, u tibbiyot va oziq-ovqat diskursida kuchli ijobiy konnotatsiya kasb etadi.

Turkiy tillarda tarixan “omma, oddiy xalq” ma’nosini tashigan qora rang zamonaviy marketingda an’anaviy salbiy ma’nolardan xalos bo‘lib, mutlaq nufuz, hashamat va elitarlik indikatoriga aylangani ko‘rsatildi.

Osiyo va sharq mentalitetida qizil rang xaridorni shoshiltiruvchi dinamik signal bo‘lishi bilan birga quvonch va tantana ramzi hisoblanishi, ammo dindor auditoriyada qon assotsiatsiyasi tufayli ehtiyotkorlik talab etishi dalillandi.

---

[79] Розенталь Д.Э., Кохтев Н.Н. Язык рекламных текстов. – М.: Высшая школа, 1981.; Пирогова Ю.К., Баранов А.Н., Паршин П.Б. Рекламный текст: лингвистика и семиотика. – М., 2000.; Медведева Е.В. Рекламная коммуникация. – М.: Едиториал УРСС, 2004.

[4] Бакиева Г.Х., Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тили. – Тошкент: O’zkitobsavdonashriyot, 2020.; Эшбеков Т.У. Жамоатчилик билан алоқалар ва матбуот хизматлари. – Тошкент: Университет, 2008.; Маллаева Ф. Рекламанинг инсон ва жамият ҳаѐтидаги ўрни // ҚарДУ хабарлари, 2018. ; Абдуллаев Б.Х. Ўзбек реклама лингвистикаси: назария ва амалиёт. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Андижон, 2020. – Б. 15.

[80] Истрин В. А. Возникновение и развитие письма. – М.: Наука, 1965. – С. 13.; Тулупов В.В. Газета: маркетинг, дизайн, реклама. — Воронеж: Кварта, 2001. – С. 98.

[81] Осетрова О. В. Шрифт в рекламном дизайне: На примере печатной полиграфической и пресс-рекламы: Дис. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2005. – 222 с.

[82] Булатов С.С., Аханов Б. Ранг психологияси. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 45-48; Алиева М. Реклама дискурсининг лингвокогнитив тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2019. – Б. 82-85; Лебедев-Любимов А.Н. Психология рекламы. – Санкт-Петербург: Питер, 2002. – С. 145-150.

[83] Корнилова Е., Гордеев Ю. Слово и изображение в рекламе. — Воронеж: Кварта, 2001. – С. 64-68.; Қаҳрамон Нурали. Рангнома – рангларнинг сиз билмайдиган ўзбекча номлари // Oyina.uz миллий портали. – 2025. ;] Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы. – Москва: Наука, 1997. – С. 186. ; Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. I жилд. – Тошкент: Фан, 1960. – Б. 124. [16] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – Б. 211.

[84] Мустафаев Ш. Н., Булатов С. С. Нажмиддин Кубронинг «Латоиф назарияси» // Journal of Iqro. — Самарқанд, 2024. — Special Issue. — Б. 102–107. ; Булатов С. С., Аханов Б. Ранг психологияси. — Т., 2003. – Б. 24.; Рўзиева М. Ё. Ўзбек халқ қўшиқларида ранг символикаси: филол. фан. доктори (DSc) дисс. автореферати. – Тошкент, 2017. – 46 б.; Ўтанова С. Ҳ. Алишер Навоий ғазалиётида ранг символикаси: филол. фан. номзоди дисс. – Тошкент, 2007. – 138 б. ; Абдурахмонов А. А. Ўзбек шеъриятида нур, ранг ва руҳият тасвири поэтикаси (анъана ва новаторлик аспектида): филол. фан. фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – 168 б.

Sariq rang inson ko‘zi uchun eng kam energiya talab qiluvchi, ammo miyani tez faollashtiruvchi nur bo‘lib, o‘zbek turizm va xizmat ko‘rsatish reklamalarida quyosh, mehmondo‘stlik va farovonlikni ifodalovchi eng mahsuldor vositadir.

Bundan tashqari, matnda diqqatni tortishning radikal usuli sifatida noan’anaviy yozuv (grafikonlar) keng qo‘llanilayotgani tahlil qilindi. So‘z tarkibida lotin va kirill alifbolari qorishuvi yoxud logogrammalar (raqam va belgilarni harf o‘rnida ishlatish) axborot siqiqligini (kompressiyasini) ta’minlaydi. Tinish belgilarining ataylab takrorlanishi (!!!, ...) yoki so‘zlarni faqat BOSH HARFLAR bilan yozish matnning imperativlik (buyruq) darajasini vizual hayqiriq darajasiga ko‘taradi[85]. Ammo bu kabi qoidalardan chekinishning me’yordan ortishi milliy yozuv madaniyatiga va vizual savodxonlikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi lisoniy vandalizm ko‘rinishi ekanligi qayd etildi.

Xulosa o‘rnida e’tirof etildiki, reklama matnidagi vizual-grafik unsurlar mahsulotning estetik jozibadorligini oshiribgina qolmay, xaridorning ongosti qatlamlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri singib kiruvchi va xarid qarorini manipulyatsiya qiluvchi hal qiluvchi lingvopragmatik mexanizmdir.

Ikkinchi bobning yakuniy uchinchi fasli “**Fonetik-grafik vositalarning maqsadli auditoriyaga va sotsiomadaniy jihatlarga yo‘naltirilganligi”** deb nomlanadi. Zamonaviy reklama diskursida fonetik va grafik vositalar faqatgina estetik vazifani bajarmay, balki maqsadli auditoriyaning yoshi, jinsi va ijtimoiy-madaniy qiyofasiga to‘liq moslashuvchi pragmatik qurol sanaladi. Tadqiqotda aniqlanishicha, yoshlar auditoriyasiga qaratilgan matnlarda “klipli tafakkur”ni o‘ziga jalb qilish uchun lisoniy me’yorlardan ongli chekinish, lotin va kirill alifbolarini qorishtirish kabi nostandart grafik o‘yinlar faol qo‘llaniladi[86]. Biroq, S.V.Mosheva hamda I.N.Plindina ta’kidlaganidek, bu kabi vizual anomaliyalar ekolingvistik nuqtayi nazardan xavfli bo‘lib, milliy imlo me’yorlarining emirilishiga, yoshlar tafakkurida tilga nisbatan iste’molchilik munosabati shakllanishiga va sotsiomadaniy qadriyatlarning qadrsizlanishiga olib keladi[87].

Reklama matnlarining grafik va fonetik qiyofasi gender xususiyatlariga ko‘ra ham keskin farqlanadi[88]. Ayollarga yo‘naltirilgan matnlarda hissiy bo‘yoqdorlik, nafis va yumaloq shriftlar hamda murakkab rang jilolari ustunlik qilsa, erkaklar auditoriyasi uchun qalin, to‘g‘ri chiziqli shriftlar, keskin rang kontrastlari va lo‘nda, mantiqiy-shiddatli ohang tanlanadi. Tadqiqotda reklamadagi grafik kodlar orqali sun’iy gender qutblanishlar yaratish emas, balki milliy mentalitetga mos sog‘lom ijtimoiy rollarni targ‘ib qilish zarurligi asoslandi.

---

[85] Юсупова К.К. Ўзбек тилидаги реклама матнларида императивлик ва унинг ифодаланиши. Филол. фан. ... PhD дисс. – Тошкент, 2022; Мамирова Д.Ш. Ўзбек реклама матнларининг социолингвистик хусусиятлари. PhD дисс. – Тошкент, 2024. – Б. 64.

[86] Мощева С.В. Масс-медийный дискурс: графико-орфографические выразительные средства // Вестник НГУ. Т. 11, вып. 6. — С. 130.

[87] Иванова Н.К., Мощева С.В. Интенциональный аспект рекламного дискурса: фонетико-орфографические особенности. – М., 2011. – С. 45. ; Плындина И.Н. Использование цвета в рекламе // Актуальные вопросы экономических наук. – Белгород, 2015. – С. 48-51.

[88] Азаренок Н.В. Гендерное восприятие рекламы // Репозиторий БГПУ. – Минск. – С. 49. ; Зайдельман О.В. Гендерные особенности восприятия социальной рекламы // Экономика и социум. – Уфа, 2017. – № 1(32). – С. 638.

O‘zbek reklama matnlarida iste’molchini harakatga undash (imperativlik) faqatgina buyruq fe’llari bilan emas, balki tovush-yozuv va sintaktik vositalar sinergiyasi orqali yuzaga chiqadi. Nutqiy aktlar nazariyasiga tayanib tahlil qilinganda, o‘zbek muloqot xulqiga xos andisha, lutf va xushmuomalalik tamoyillari reklama tilidagi imperativlikni yumshatishi aniqlandi[89]. Xorijiy reklamalardagi tajovuzkor buyruqlardan farqli o‘laroq, milliy reklamamizda 2-shaxs hurmat shakllari[90], shuningdek, shart va xabar mayllari orqali ifodalangan “yashirin boshqaruv” usullari keng qo‘llaniladi.

Undov va buyruqning ta’sirchanligini vizual-grafik jihatdan kuchaytirishda sintaktik deformatsiyalarning o‘rni beqiyosdir. Kesimning gap boshiga ko‘chirilishi (inversiya), undalmalarning (murojaat birliklarining) alohida xatboshi, yirik shrift va pauzalar bilan ajratilishi xaridor diqqatini zudlik bilan qamrab oladi. Qolaversa, mahsulotni jonlantirish (tashxis) va metaforik bo‘rttirishlarning fonetik jarangdorlik bilan uyg‘unlashuvi qat'iy buyruqni "samimiy do‘stona tavsiya"ga aylantiradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbek reklama matnlarida leksik birliklarning ekspressiv-pragmatik va lingvomadaniy tahlili”** deb nomlanadi. Bobning birinchi fasli **“Ekspressiv leksikaning qo‘llanishi, pragmatik maqsadlari va lingvomadaniy konnotatsiyalari”** tarzida belgilandi. Reklama diskursida leksik birliklar faqatgina voqelikdagi yangi predmet yoki hodisalarni nomlash (nominativ) ehtiyojini qondirmay, balki iste’molchining hissiyotlari va qaror qabul qilish jarayonini yashirin boshqarishga qaratilgan o‘ta kuchli ekspressiv-pragmatik hamda lingvomadaniy vositaga aylangan. Til “tirik vujud” sifatida ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashib boradi[91] va reklama tarmog‘i bu leksik yangilanishlarni birinchilardan bo‘lib ommalashtiradigan dinamik maydon hisoblanadi.

Reklama matnlarida neologizm va okkazionalizmlarning qo‘llanilishi shunchaki yangi tushunchalarni atash emas, balki xaridor e’tiborini zudlik bilan jalb qilish, qoliplashgan stereotiplarni buzish va kuchli mnemonik ta’sir (xotirada saqlab qolish) ko‘rsatishdek strategik pragmatik maqsadlarga bo‘ysundiriladi. Ushbu jarayonda lisoniy o‘yinlar iste’molchi ruhiyatini manipulyatsiya qilishning eng sermahsul vositasi sifatida namoyon bo‘lmoqda[92]. So‘zlarning tovush qobig‘i va kognitiv ma’nosini chatishtirish (paronomaziya, polisemiya) orqali xaridorda ijobiy hissiyotlar va brendga nisbatan uzilmas neyrokognitiv bog‘liqlik avtomatik ravishda shakllantiriladi[93].

---

[89] Юсупова К.Қ. Ўзбек тилидаги реклама матнларида императивлик ва унинг ифодаланиши: PhD дисс. автореферати. – Тошкент, 2022. – Б. 10-11.; Беляева Е. И. Грамматика и прагматика побуждения: английский язык. – Воронеж: ВГУ, 1992. – С. 46.

[90] Шукуров Ш. Ўзбек тилида феъл майллари тараққиёти. – Тошкент: Фан, 1980. – Б. 8. ; Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. – М.-Л: Изд-во АН СССР, 1960. – С. 205-207. ; Аъламова М. Туркий тилларда буйруқ-истак майли ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. №4. – 1966. – Б. 31.

[91] Пасева А.В. Язык как живой организм // Молодой ученый. – 2016. – № 11 (115). – С. 213.

[92] Витгенштейн Л. Философские исследования // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16. – М.: Прогресс, 1985. – С. 24-37.

[93] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 120-122.

Tadqiqotda lisoniy o‘yinlar va til me’yorlaridan atayin chekinishning ekolingvistik oqibatlari tanqidiy tahlil qilindi. Ta’kidlanishicha, tijoriy manfaatlar yo‘lida oila, ayol sha’ni va milliy andisha kabi muqaddas qadriyatlarni arzon savdo vositasiga yoxud lisoniy hazil obyektiga aylantirish jamiyatning nutq madaniyatini yemiradi. Tilning sofligini bunday lisoniy vandalizmdan himoya qilish maqsadida reklama matnlarining davlat lingvistik ekspertizasini joriy etish, qadriyatlar chegarasini qonunan belgilash hamda kommunikativ mas’uliyatni oshirish zarurati ilmiy asoslandi[94]. Shuningdek, reklama diskursida okkazionalizmlar va gibrid so‘zlar yaratishda xorijiy tillarga oid affikslarning o‘zbekcha o‘zaklarga majburan ulanishi glokalizatsiya (global va mahalliy unsurlar qorishuvi) effektini yuzaga chiqarib, xaridor diqqatini tortishga xizmat qiladi[95]. Biroq, bu hodisa tilning tabiiy morfologik tizimiga qilingan tajovuz bo‘lib, lisoniy qaramlikni keltirib chiqarishi dalillandi. Qolaversa, “haqiqiy”, “asl”, “betakror” kabi baholovchi leksikaning faol qo‘llanilishi milliy mentalitetga tayanib, xaridorda mahsulot sifatiga nisbatan mutlaq va mantiqiy ishonch shakllantirishi ko‘rsatib o‘tildi[96].

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillarga tayanib, o‘zbek reklama diskursida ekspressiv leksikaning qo‘llanilishi bo‘yicha quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Zamonaviy o‘zbek reklama matnlarida so‘z o‘zining azaliy nominativ vazifasidan chekinib, iste’molchining ongi va xulq-atvorini yashirin boshqarishga yo‘naltirilgan manipulyativ hamda ishontiruvchi qurolga aylangan.

Neologizm, okkazionalizm va lisoniy o‘yinlar xaridor idrokini faollashtirish, qoliplashgan tafakkurni buzish va brendning xotirada mustahkam saqlanib qolishini ta’minlovchi asosiy strategik vositadir.

Milliy-ma’naviy qadriyatlar (oila, ayol sha’ni) ustida qilingan arzon lisoniy hazillar hamda xorijiy o‘zaklarga o‘zbekcha qo‘shimchalarni zo‘raki ulash orqali yaratilgan gibrid so‘zlar milliy nutq madaniyatini sayozlashtiruvchi xavfli ekolingvistik tahdiddir.

O‘zbek reklamalaridagi baholovchi leksika oddiy axborot emas, balki bevosita milliy mentalitetga, halollik va ishonch konseptlariga tayanib, mahsulotga yuksak ijtimoiy maqom (elitarlik) hamda asllik bag‘ishlaydi.

Uchinchi bobning ikkinchi fasli “**Reklama matnida troplarning ekspressiv-pragmatik vazifalari va ular orqali milliy-madaniy stereotiplarning aks etishi”** tarzida belgilangan. Reklama diskursida badiiy tasvir vositalari, xususan, troplar (metafora, metonimiya, mubolag‘a va h.k.) shunchaki lisoniy bezak emas, balki iste’molchi ongini va uning ijtimoiy xulq-atvorini yashirin boshqaruvchi qudratli idrokka xos (kognitiv) mexanizm vazifasini o‘taydi. O‘zbek tilshunosligida R.Qo‘ng‘urov va M.Yo‘ldoshevlar ta’kidlaganidek, troplar tilning boy ifodaviy imkoniyatlarini namoyish etibgina qolmay, o‘quvchining

[94] Сковородников А.П. Экология русского языка. – Красноярск: СФУ, 2016. – С. 25.; Кара-Мурза Е.С. Лингвистическая экспертиза рекламного дискурса // Культура речи и эффективное общение. – М.: Флинта, 2005. – С. 261.

[95] Robertson R. Glocalization: Time-Space and Homogeneity-Heterogeneity // Global Modernities. – London: Sage, 1995. – P. 25-44.

[96] Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М.: Наука, 1985. – С. 63.

hissiyotlariga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi, nutqning jozibasini oshiruvchi betakror uslubiy yechimdir[97].

Kognitiv tilshunoslik, xususan, J.Lakoff va M.Jonsonlarning konseptual metafora nazariyasiga tayanib tahlil qilinganda, metafora faqat badiiyat quroli emas, balki inson tafakkurining yashash usuli ekanligi namoyon bo‘ladi[98]. Reklama ijodkorlari moliyaviy xizmatlar, texnologiyalar kabi mavhum, quruq va zerikarli tushunchalarni xaridorga tanish, issiq va yaqin bo‘lgan milliy madaniy obrazlarga ko‘chirib berish orqali kuchli etnopragmatik ta’sirga erishadilar. D.Xudoyberganova[99] va Sh.Maxmaraimovalarning tadqiqotlari tasdiqlaganidek, metafora orqali inson murakkab borliqni insoniylashtiradi va milliy tasavvurlar qolipiga soladi[100].

Tadqiqot jarayonida o‘zbek reklama diskursi uchun eng mahsuldor bo‘lgan metaforik modellar tizimlashtirildi va ularning pragmatik ta’sir kuchi aniqlandi:

1. Tabiat va ekologiyaga oid metaforalar (“tog‘lar beshigini tebratgan suv” – tozalik va muqaddaslik konnotatsiyasi mahsulot xavfsizligini ongostiga singdiradi).
2. Somatik-antropomorf (inson vujudi va hislariga oid) metaforalar (masalan, “Yandeks Pro – uydagilar yuragida” metonimiyasi xizmatni tijoriy vositadan g‘amxo‘r do‘st va oilaviy xavfsizlik manbaiga aylantiradi).
3. Makon, masofa va harakatga oid metaforalar (moliyaviy barqarorlikni “ishonchli qadam”, “yo‘l ochish” kabi makoniy ko‘chimlar orqali isbotlash).
4. Ibtido, intiho va me’morchilik metaforalari (maishiy texnika va uylarni “baxtli hayot poydevori”, shaharning “yuragi” sifatida ulug‘lash).
5. Sehr-jodu va asotiriy metaforalar (“Oltin baliqcha”, “Bir bor ekan...” ertak qoliplari orqali mablag‘ sarflash jarayonini stressdan xoli mo‘jizaga aylantirish).
6. Sensor metaforalar (sinesteziya) (“qaynoq mehr va salqin ta’m”, “qarsillagan lahzalar” – turli sezgilar qorishuvi orqali kuchli psixologik joziba yaratish).
7. Ijtimoiy o‘zlik va oilaviy qadriyatlarga asoslangan ko‘chimlar (avtomobilni “temir tulpor”, do‘kon xizmatini “bir piyola choy” sifatida taqdim etish).

Olib borilgan lingvomadaniy tahlillar natijasida o‘zbek reklama diskursida troplarning qo‘llanilishi bo‘yicha quyidagi umumlashgan xulosalar shakllantirildi:

G‘arb reklamalarida shaxsiyat erkinligiga, individual manfaatlarga asoslangan majoziy obrazlar ustunlik qilsa, o‘zbek reklama matnlarida asosan milliy-madaniy va ma’naviy timsollar (ota-onaga ehtirom, mehmondo‘stlik, oila butunligi, andisha) bilan yo‘g‘rilgan lisoniy ko‘chimlar mutlaq yetakchilik qiladi.

Badiiy ko‘chimlar mahsulotning quruq texnik xususiyatlarini millatning hissiy-psixologik tiliga tarjima qilib beruvchi “kognitiv ko‘prik” vazifasini o‘taydi.

---

[97] Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий воситалар. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 154.; Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 156.

[98] Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – М.: УРСС, 2004. – С. 25.

[99] Худойберганова Д. Матннинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.

[100] Махмараимова Ш. Т. Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти... – Тошкент, 2018.

“Bir piyola choy” yoki “temir tulpor” kabi metaforalar xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi sovuq tijoriy masofani mutlaq yo‘qqa chiqarib, intimizatsiya (ruhiy yaqinlashuv) hosil qiladi.

Reklamadagi bunday o‘rinli troplar va lisoniy mubolag‘alar iste’molchini shunchaki buyum sotib olishdek moddiy harakatga majburlamaydi, balki uning eng oliy ma’naviy ehtiyojlarini (yaqinlariga mehr ko‘rsatish, oilaviy xavfsizlik, oqibat tuyg‘ularini qondirish) ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi. Bu esa o‘zbek reklama diskursining eng o‘ziga xos etnopragmatik cho‘qqisidir.

Uchinchi bobning uchinchi fasli **“Atoqli otlarning ekspressiv qo‘llanilishining pragmatik jihatlari va ishontirish strategiyalaridagi o‘rni”** deb nomlanadi. Atoqli otlar (onomastik birliklar) shunchaki shaxs yoki narsani farqlovchi oddiy yorliq (identifikator) vazifasidan mutlaqo ajralib chiqqan. Ular o‘zida xalqning ko‘p asrlik madaniy-tarixiy tajribasini, ijtimoiy-ruhiy munosabatlarini jamlagan o‘ta kuchli ekspressiv-pragmatik va ishontiruvchi mexanizmga aylangan[101]. Tadqiqotda aniqlanishicha, reklama matnidagi pragmatonimlar, antroponimlar va toponimlar iste’molchi diqqatini tortuvchi asosiy attraktor va yashirin tarzda uning ongiga ta’sir qilib, xaridga undovchi suggestor vazifasini bajaradi. O.V.Kirpicheva[102] va D.Andaniyazovalarning[103] tadqiqotlariga tayangan holda, reklamadagi atoqli otlar, ayniqsa, muvaqqat onomastik birliklar, iste’molchining hissiy va ongosti idrokini boshqarishda hal qiluvchi rol o‘ynashi isbotlandi[104].

O‘zbek reklama matnlarida atoqli otlarning pragmatik ta’siri uchta darajada (idrokka oid, hissiy va ongostiga yo‘naltirilgan) tizimlashtirildi. Idrok bosqichida nom mahsulotni tanitsa, hissiy bosqichda yoqimli assotsiatsiyalar shakllantiradi. Eng oliy – ongosti bosqichda esa hech qanday mantiqiy dalillarsiz xaridorda ko‘r-ko‘rona ishonch hosil qilinadi.

Pragmatonimlar (brend va mahsulot nomlari) reklama matnining kognitiv markazi sanaladi. Ular semantizatsiya (asl turdosh ot ma’nosini jonlantirish, masalan, “Mo‘tabar” tibbiyot markazi) hamda so‘z ma’nolari o‘yini (“Zarhal” zargarlik uyi) orqali iste’molchida avtomatik ijobiy kayfiyat uyg‘otadi. Shuningdek, pragmatonimlarni metafora yoki jonlantirish (tashxis) asosida tasvirlash (masalan, “Sag‘bon mijozlari haqida qayg‘uradi”) brend va xaridor o‘rtasida insoniy, yaqin munosabatni shakllantiradi.

Antroponimlar (shaxs ismlari) reklamada psixologik identifikatsiyani yuzaga keltiradi. Mujassamlangan (ishoraviy*)* antroponimlar (tarixiy shaxslar, Alpomish, Ibn Sino yoki mashhurlar) mahsulotga mutlaq nufuz, qahramonlik va sifat kafolatini yuklaydi. Boshqa tomondan, mavhum, maishiy ismlar (Nodira opa, Qodir aka) yoki ismlarning kichraytirish shakllari (shirintoyim) reklamadagi sovuq, rasmiy savdo muhitini qisqartirib, mijozni so‘zlovchining “shaxsiy

[101] Лившиц Т.Н. Специфика рекламы в прагматическом и лингвистическом аспектах. – Таганрог: Изд-во ТРТУ, 1999. – С. 45.
[102] Кирпичева О.В. Ономастикон рекламного текста. – Волгоград: ВГПУ, 2007.
[103] Andaniyazova D.R. O‘zbek tilida muvaqqat onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlari: DSc diss. avtoref. – Toshkent, 2025.
[104] Раджабова М.А. Ономастик компонентли фразеологик бирликларнинг лингвомаданий жиҳати ва таржима муаммолари. – Тошкент, 2021.

hududi”ga (do‘stona muloqotga) tortadi va uning mantiqiy shubhalarini parchalaydi[105].

Toponimlar (joy nomlari) o‘zbek reklama diskursida sifat va tabiiylikning tarixan shakllangan eng ishonchli etaloni vazifasini o‘taydi. “Chust pichoqlari”, “Zomin asali” yoki “Quva anori” kabi iboralardagi toponimlar shunchaki manzilni emas, yuz yillik mehnat madaniyati va tabiat sofligi konseptini tashiydi. Biroq, toponimlardan qasddan, lisoniy manipulyatsiya maqsadida (masalan, sun’iy ko‘lda boqilgan baliqni sotish uchun Amudaryo yoki Sho‘rko‘l nomlaridan foydalanish) foydalanish iste’molchini nohalol ishontirish (illokutiv aldov) bo‘lib xizmat qiladi[106].

Qadimgi Sharq adabiyotiga qilingan murojaat (Shosh kamoni, Isfahon po‘lati, Kashmir sholi) toponimlarning sifat etaloni (superbrend) sifatidagi pragmatik kuchi bugun paydo bo‘lmagani, balki uning ildizlari xalq tarixi va adabiyotiga qadar chuqur borib taqalishini ilmiy jihatdan asosladi. Bugungi reklama mutaxassislari ana shu tarixiy-lingvokognitiv xotiradan unumli foydalanmoqda.

Uchinchi bobning to‘rtinchi fasli **“O‘zbek reklamasi tilida chegaralangan leksikaning faollashuvi: ekspressiv-pragmatik xususiyatlari va sotsiolingvistik omillar”**dir. Bugungi kunda iste’molchilarning diqqatini tortish maqsadida axborot makonida shafqatsiz raqobat kuzatilmoqda. An’anaviy va silliq adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilingan reklama matnlari ko‘pincha xaridorlarda befarqlik, ya’ni “reklama ko‘rligi” deb ataluvchi psixologik to‘siqni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli maqsadli auditoriya bilan tezkor, ishonchli va emotsional muloqot o‘rnatish uchun reklama ijodkorlari umumxalq adabiy tilidan tashqarida turuvchi maxsus lisoniy qatlamga – qo‘llanish doirasi chegaralangan leksikaga jadal murojaat qilmoqdalar. M.V.Terskix va N.V.Uglovalarning tadqiqotlariga tayangan holda, mazkur lisoniy qatlamning reklama diskursiga olib kirilishi bir tomondan diqqatni keskin jalb qilish va mahalliylashtirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, adabiy til me’yorlarining yemirilishi hamda “leksik portlash” kabi jiddiy ekolingvistik muammolarni yuzaga chiqarishi ilmiy jihatdan isbotlandi[107].

Tadqiqot jarayonida o‘zbek reklama matnlarida chegaralangan leksikaning har bir turi o‘ziga xos pragmatik va sotsiolingvistik vazifalarni bajarishi aniqlandi. Xususan, yoshlar auditoriyasiga mo‘ljallangan reklamalarda jargon va slenglar (*vayb, otriv qil, bomba narxlar, cho‘tkiy*) mutlaq hukmronlik qilmoqda. Ushbu qatlam so‘zlari reklamani rasmiy muloqot qobig‘idan xalos etib, xaridor va brend o‘rtasida sun’iy tenglik, samimiyat va do‘stona muhitni ta’minlaydi. Biroq, e’tiborga olish lozimki, Y.S.Kara-Murza ta’kidlaganidek, tijoriy so‘z erkinligi niqobi ostida dag‘allashgan va marginal leksikaning ommaviy axborot vositalarida

[105] Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1998. – Б. 12.
[106] Юлдашев Д. Атоқли отларнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Ниҳол, 2021. – Б. 86, 108.
[107] Терских М.В. Лексика ограниченного употребления в рекламе: функциональный аспект // Неофилология. – 2025. – Т. 11. № 1. – С. 58-59.; Углова Н.В. Употребление жаргонных слов в рекламном тексте // Альманах теоретических и прикладных исследований рекламы. – 2016. № 1. – С. 49-50.

keng targ‘ib qilinishi jamiyat nutq madaniyatining sayozlashishiga va lisoniy didning tanazzuliga olib keluvchi xatarli tendensiyadir[108].

Maqsadli auditoriyada ishonch va qadrdonlik hissini uyg‘otishning yana bir qudratli vositasi sifatida sheva so‘zlari tadqiq etildi. *“Qaymog‘i ustida”*, *“oyingiz yopgandek”*, *“tandir go‘sht”* kabi hududiy leksik birliklar mahsulotga maishiy tabiiylik, xalqchillik va “uydagidek” iliqlik bag‘ishlaydi. Dialektizmlar iste’molchining ongosti qatlamlarida nostalgiya (o‘tmishni qo‘msash) hissini faollashtirib, u bilan ishonchli hududiy muloqot o‘rnatadi[109]. Shu bilan birga, bu kabi so‘zlar reklama xabarining kommunikativ qamrovini faqat muayyan bir mintaqa yoki sheva vakillari bilan cheklab qo‘yishi va boshqa hudud xaridorlari uchun tushunmovchilik, ya’ni psixologik to‘siq yaratishi mumkinligi o‘z tasdig‘ini topdi[110].

Reklama diskursining informativ va ishonchlilik darajasini oshirishda terminlar va professionalizmlar o‘ta muhim suggestiv rol o‘ynaydi. Tadqiq qilingan matnlarda *peptidlar, gialuron kislotasi, injektor, kalsiy ionlari* kabi tor doiradagi kasbiy va ilmiy so‘zlardan foydalanilishi xaridor ongida mahsulotga nisbatan yuksak ekspertlik, ilmiylik va xalqaro nufuz maqomini yuklashga qaratilgani dalillandi[111]. Aksariyat iste’molchilar bu terminlarning asl kimyoviy yoki texnik mohiyatini to‘liq anglamasalar-da, mantiqiy ishontirish qonuniyatlariga ko‘ra, ularning ortidagi “ilmiy kafolat” va “innovatsionlik” illyuziyasiga so‘zsiz ishonadilar.

Shuningdek, reklama nomlash amaliyotida istorizm va arxaizmlar (*beklar taomi, podshohona lutf, karvon*) alohida etnopragmatik ahamiyat kasb etadi. Tarixiy leksika mahsulotga aslzodalik, uzoq yillik ishonchlilik va elitar maqom berib, mijozning ijtimoiy g‘ururini oshirish maqsadida qo‘llaniladi[112]. Ammo ularni zamonaviy texnologik mahsulotlarga nisbatan ehtiyotsizlik bilan ishlatish kognitiv nomutanosiblikni, ya’ni ishonchsizlikni keltirib chiqarishi aniq ko‘rsatib o‘tildi[113].

Neologizm va okkazionalizmlar (*skidkamaniya, shok-tushdi, megabayt*) orqali yuzaga keladigan lisoniy o‘yinlar axborotning xotirada tez muhrlanishiga va reklamaning zanjirsimon ommalashuviga xizmat qiladi[114]. Lisoniy tejamkorlikni ta’minlasa-da, xorijiy tillarga oid affikslarning o‘zbekcha o‘zaklarga majburan ulanishi natijasida hosil bo‘lgan duragay (gibrid) so‘zlar glokalizatsiya (global va mahalliy unsurlar qorishuvi) effektini yaratsa-da, tilning tabiiy morfologik tuzilishiga qilingan qo‘pol tajovuz ekanligi asoslandi. Qolaversa, V.M.Volf nazariyasiga ko‘ra, *“haqiqiy”*, *“asl”*, *“betakror”* kabi baholovchi leksikaning faol

---

[108] Кара-Мурза Е.С. Культура русской речи в рекламной деятельности // Журналистика и культура русской речи. – М., 1996. Вып. 4. – С. 45.

[109] Медведева Е.В. Рекламная коммуникация. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 112.

[110] Терских М.В. Лексика ограниченного употребления в рекламе... – 2025. – Т. 11. № 1. – С. 59.

[111] Емельянов С.М. Профессионализм в сфере рекламы и связей с общественностью... // Экономика и управление. – 2010. – № 12. – С. 63.; Терских М.В. Лексика ограниченного употребления в рекламе... – 2025. – Т. 11. № 1. – С. 61.

[112] Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2005. – Б. 172.; Терских М.В. Лексика ограниченного употребления в рекламе... – 2025. – Т. 11. № 1. – С. 64.

[113] Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 64.

[114] Терских М.В. Лексика ограниченного употребления в рекламе... – 2025. – Т. 11. № 1. – С. 64-65.

qo‘llanilishi milliy mentalitetga tayanib, xaridorda mahsulot sifatiga nisbatan mutlaq ishonch shakllantiradi[115].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, o‘zbek reklama diskursida chegaralangan leksikaning faollashuvi shunchaki uslubiy evrilish yoki tasodif emas, balki xaridor ongini va bozor xulq-atvorini boshqarishga yo‘naltirilgan murakkab, aniq pragmatik strategiyadir. Baholovchi leksika, shevalar va jargonlar vositasida mahsulotga kerakli ijtimoiy qiyofa bag‘ishlansa-da[116], ularning nazoratsiz va ommaviy targ‘ib etilishi milliy til ekologiyasiga, xususan, yoshlar nutq madaniyatiga putur yetkazadi. Shu bois tijoriy manfaatlar yo‘lida oila, ayol sha’ni va milliy andisha kabi muqaddas qadriyatlarni arzon savdo vositasiga yoxud lisoniy hazil obyektiga aylantirish jamiyatning nutq madaniyatini emirishini inobatga olgan holda, reklama matnlarining davlat lingvistik ekspertizasini qat’iy joriy etish, qadriyatlar chegarasini qonunan belgilash va ijodkorlarning kommunikativ mas’uliyatini oshirish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas ilmiy hamda ijtimoiy zarurati sifatida asoslab berildi.

Dissertatsiyaning yakuniy to‘rtinchi bobi “**O‘zbek reklama matnlarida grammatik vositalarning ekspressiv-pragmatik talqini”** haqida bo‘lib, bobning dastlabki fasli **“Ekspressiv morfologiyaning pragmatik vazifalari va kommunikativ samaradorligi”** deb nomlanadi. Reklama matni shunchaki ma’lumot emas, u iste’molchida aniq hissiyot uyg‘otish va xarid qilishdek amaliy harakatga yo‘naltirishga qaratilgan psixolingvistik hodisadir. Mazkur jarayonda ekspressiv morfologiya so‘zlarning yashirin quvvatini va botiniy ta’sir etish kuchini yuzaga chiqaruvchi asosiy qurol sifatida namoyon bo‘ladi.

G.A.Potapova kabi olimlarning tadqiqotlari asosida tahlil qilinganda, zamonaviy o‘zbek reklama diskursida mahsulot sifatini bo‘rttirib, unga mutlaq jadallik bag‘ishlash maqsadida xalqaro *super-, mega-, ultra-, giper-, anti-* kabi old qo‘shimchalardan (prefikslardan) intensiv foydalanilayotgani aniqlandi[117]. Garchi bu unsurlar agglyutinativ o‘zbek tilining sof tabiati uchun yot bo‘lsa-da, reklama ijodkorlari ularni xaridor ongida kutilmagan shok holatini (jalb qilishni) yaratuvchi vosita sifatida o‘zbekcha o‘zaklarga biriktirmoqdalar[118].

Lisoniy tejamkorlikni ta’minlovchi bunday qurilmalarning nazoratsiz ko‘payishi ekolingvistika nuqtayi nazaridan jiddiy xavf sifatida baholandi. Bu kabi qo‘shimchalarning mahalliy so‘zlarga ulanishi (“super narx”, “mega yutuq”) genetik jihatdan nomutanosib “lisoniy ximera”larni paydo qilmoqda[119]. Lisoniy ximera – tijoriy uydirmani tildagi sun’iy so‘z orqali go‘yoki haqiqatdek tasvirlash (illyuziya yaratish) usuli bo‘lib, millatning tabiiy so‘z yasalish algoritmiga putur yetkazadi va “lisoniy immunitet”ni pasaytiradi. Shuningdek, *-landiya, -siti, -haus*

[115] Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М.: Наука, 1985. – С. 63.

[116] Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 75.

[117] Потапова Г. А. Функционирование иноязычных морфем в русском языке на рубеже XX - XXI веков: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2014. – С. 3.; Соёлсурен Б. Иноязычные слова с заимствованными суффиксами в современном русском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2003. – С. 14.

[118] Потапова Г. А. Функционирование иноязычных морфем в русском языке на рубеже XX - XXI веков. – 2014. – С. 5.

[119] Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 52-58.

kabi affiksoidlar hamda *-ing* kabi xorijiy suffikslar mahsulotga global nufuz va zamonaviylik bag‘ishlashdek pragmatik vazifani o‘tamoqda[120].

Tadqiqotda ekspressiv morfologiyaning yana bir muhim tarmog‘i – subyektiv munosabatni ifodalovchi qo‘shimchalarning (*-jon, -gina, -voy*) roli yoritildi. Bunday affikslar xaridorning tabiiy himoya (shubha) to‘sig‘ini buzib o‘tib, rasmiy muloqotni samimiy, mehrga yo‘g‘rilgan oilaviy suhbat darajasiga ko‘taradi. Masalan, *shirintoylar tanlovi*, *muzdekkina choy* kabi birikmalar mahsulotni tovar qobig‘idan xalos etib, ongostida himoya va xavfsizlik instinktlarini ishga tushiradi.

Sintaktik ifodadorlikni ta’minlashda modal so‘zlar va undovlarning qatnashuvi alohida tahlilga tortildi. D.A.Paramonov nazariyasiga ko‘ra, modal so‘zlar tinglovchining voqelikni qabul qilish qolipini o‘zgartirish vositasidir[121]. O‘zbek reklamalarida modal so‘zlar quyidagi toifalarga ajratildi:

1. *Qat’iy ishonch va muqarrarlik ifodasi* (albatta, so‘zsiz, muqarrar) – xaridorda mahsulotga nisbatan shubhalarni butunlay bartaraf etadi.
2. *Majburiyat va zarurat* (kerak, shart) – buyruqning keskinligini pasaytirib, uni hayotiy ehtiyojga aylantiradi.
3. *Taxmin va yumshatish* (balki, ehtimol) – raqobatchiga nisbatan yashirin kesatiq sifatida ishlaydi.
4. *Hissiy munosabat* (afsuski, xayriyatki) – mijozda yo‘qotish qo‘rquvini yoki muammodan xalos bo‘lish quvonchini uyg‘otadi.

O‘z navbatida, undov so‘zlar reklama xabarining “hissiy portlash” markazi ekanligi isbotlandi[122]. Xitoylik olima Syuy Shanshan tadqiqotlariga tayangan holda, undov va modal so‘zlarning qo‘llanilishida qat’iy gender farqlari mavjudligi asoslandi. Ayollar auditoriyasi uchun mo‘ljallangan matnlarda his-hayajon, nazokat va empatiyani ifodalovchi undovlar (*Voy, Oh, Ie*) ustunlik qiladi va mantiqiy dalildan ko‘ra hissiy quvonchni rag‘batlantiradi[123]. Erkaklarga qaratilgan reklama (avtomobil, bank, texnika) matnlarida esa hissiyot deyarli uchramaydi; ular o‘rnini hukmronlik va mantiqni anglatuvchi qisqa undovlar (*Olg‘a! Bas!*) hamda aniq modal kafolatlar egallaydi.

Xulosa o‘rnida e’tirof etildiki, o‘zbek reklama diskursida affikslar, modal so‘zlar va undovlar shunchaki grammatik birliklar emas. Ular xaridor va sotuvchi o‘rtasidagi rasmiy masofani qisqartirib, muloqotni samimiylashtiruvchi hamda gender qadriyatlarini mohirona manipulyatsiya qilish orqali perlokutiv (harakatga undovchi) maqsadni yuz foiz ta’minlovchi o‘ta nozik psixolingvistik arxitekturadir.

Bobning ikkinchi fasli **“Reklama matnlarida ekspressiv gap qurilishlarining tuzilishi va ma’no munosabatlari” deb** nomlanadi. Reklama matnida tilning barcha sathlari qatorida gap qurilishi, xususan, ta’sirchan-

[120] Соёлсурен Б. Иноязычные слова с заимствованными суффиксами... – С. 25.

[121] Парамонов Д. А. Феномен грамматического выражения модальных значений в современном русском языке в свете экспрессивности: автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – Москва, 2010. – С. 16.

[122] Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 112.

[123] Сюй Шаньшань. Языковая репрезентация гендерных ценностей в современном русском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2018. – С. 13.

bo‘yoqdor sintaktik qurilmalar markaziy va hal qiluvchi o‘rinni egallaydi. Sh.Safarov ta’kidlaganidek, nutqiy ta’sir o‘tkazish jarayonida til vositalari shunchaki borliqni aks ettirmaydi, balki so‘zlovchining niyatiga ko‘ra tinglovchining xulq-atvorini o‘zgartirishga bevosita xizmat qiladi[124]. M.Hakimov fikricha, nutqiy ta’sirchanlik faqatgina so‘zlarning lug‘aviy ma’nosi bilan emas, balki ularning gap ichidagi joylashuvi va ohangi bilan ham chambarchas bog‘liqdir[125].

O‘zbek reklama diskursida me’yoriy gap qurilishi (ega + to‘ldiruvchi/hol + kesim) qat’iy tartibiga ongli ravishda aralashish yuz beradi. Bu jarayonning asosiy maqsadi – muloqotni kuchaytirish, e’tiborni keskin qaratish va hissiy bo‘yoqdorlikni oshirishdir. Tadqiqotda aniqlanishicha, reklama matnlaridagi ekspressiv sintaktik qurilmalar quyidagi yetakchi shakllarda namoyon bo‘ladi:

1. Inversiya (so‘z tartibining ongli buzilishi). D.Egamnazarova[126] hamda M.Iminovlar[127] ta’kidlaganidek, inversiya nutqning hissiy jozibasini va shiddatini o‘zgartiradi. O‘zbek tilida odatda gap oxirida keladigan kesimning reklama bannerlarida gap boshiga chiqishi (“*Keldi* intiqib kutilgan chegirmalar mavsumi!”, “*Taklif etamiz* eng zamonaviy yechimlarni!) iste’molchida kuchli hayajon va qiziqish hissini yaratadi. Inversiya harakatni tezkorlashtirib, unga “mavjudlik tasavvuri”ni (jarayon hozir va shu erda ro‘y berayotganligini) bag‘ishlaydi[128].

